



ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTI I

AKT bo'yicha mutaxassislar uchun

**O'QUV QO'LLANMA "KOOPERATSIYA
LOYIHASI – AXBOROT VA
TELEKOMMUNIKATSYALAR
TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI KASBIY
TA'LIMGA KO'MAKLASHISH" O'ZBEK NEMIS TAJRI-
BA LOYIHASI DOIRASIDA ISHLAB
CHIQLIGAN**

"FAN VA TEXNOLOGIYA" – 2006

Ishlab chiqarish iqtisodiyoti I, T.,
“Fan va texnologiya” nashriyoti, 2006.

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2006.

Mundarija

KIRISH.....	5
<i>1-Bob. TADBIRKORLIKNING VUJUDGA KELISH TARIXI VA MOHIYATI.....</i>	<i>9</i>
1.1. Tijorat tuzilmalarining asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari.....	12
1.2. O‘zbekistonda tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy shakllari.....	14
1.3. Hissadorlik jamiyatlari.....	24
Muhokama uchun savollar.....	26
 <i>2-Bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI.....</i>	 <i>28</i>
2.1. Ishlab chiqarish tadbirkorligi.....	28
Ishlab chiqarish tadbirkorligining mohiyati.....	29
Ishlab chiqarish omillari.....	30
2.2. Moliyaviy resurslarga ehtiyoj va uning hisob kitobi.....	32
Ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi.....	32
2.3. Tijorat tadbirkorligi.....	33
Tovarlar va xizmatlarni xarid qilish, sotish bo‘yicha amallar.....	35
2.4. Model – savdo firmasidagi marketing ishining dasturi.....	36
2.5. Moliyaviy tadbirkorlik.....	37
2.6. Maslahat (konsultativ) tadbirkorligi.....	38
Xulosalar.....	41
O‘zingizni tekshiring.....	42
<i>3-Bob. KORXONANING ISHLASH MEXANIZMI.....</i>	<i>43</i>
Korxonaning bozor modeli.....	47
3.1. Narxni tartibga soluvchi roli.....	47
3.2. Mahsulot sifatini tartibga soluvchi roli.....	49
3.3. Korxona qimmatbaho qog‘ozlar bozorida.....	52
3.4. Korxonaning noqobilligi (Bankrotligi).....	55
Xulosalar.....	58
O‘zingizni tekshiring.....	58
 <i>4-Bob. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH VA ISTE’MOL QILISH.....</i>	 <i>59</i>

4.1. Jamiyatning talablarini to‘laroq qondirishda mahsulot ishlab chiqarishning belgilovchi roli.....	59
4.2. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qiish – uning samaradorligini oshirishning bosh omilari....	64
4.3. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning aloqasi.....	72
Xulosalar.....	74
O‘zingizni tekshiring.....	75
 5-Bob. SANOATNI RIVOJLANTIRISH.....	76
5.1. O‘zbekistondagi tadbirkorlik tarixidan.....	76
5.2. Sanoat korxonasining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va roli.....	78
5.3. O‘zbekistonning eng yirik korxonalari: faoliyat ko‘lami va samaradorligi.....	80
 6-Bob. ISHLAB CHIQARISH JARAYONINIG TURLARI, ULARNING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI.....	83
6.1. Ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari va uning turlari.....	83
6.2. Korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni.....	86
6.3. Oqim va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning mohiyati va samaradorligi.....	89
 7-Bob. SANOAT KORXONASINING JOYLASHGAN YERI.....	91
 8-Bob. SHERIKLAR OLDIDA XO‘JALIK SHART NOMALARI BO‘YICHA JAVOBGARLIK.....	93
8.1. Javobgarlik turlari.....	93
8.2. Fuqaroviy – huquqiy javobgarlik shartlari.....	96
Nazorat savollari.....	98

KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasi-ning kadr potensialiga iqtisodiy bilim berish va tarbiyalashga alohida o'rin ajratilgan. Bugungi o'quvchi – mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan qayta tashkil qilishning ertangi ishtirokchisi, bozor munosabatlarining to'la huquqli subyektidir. Hayotga jiddiy iqtisodiy tayyorlanishning dolzarbligini har qanday kasb egalari bo'lgan. Kishilarning hammasi bilishi lozim bo'lgan bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarni taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyoti buyruqbozlik iqtisodiyotiga qaraganda sifat jihatdan boshqacha turmush tarzi va usulini shaxsiylashtiradi.

Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi-ning Prezidenti I.A.Karimovning: “Odam iqtisod uchun emas, iqtisod odam uchun” degan iborasi qoidaga aylanib qoldi. Bu fikr mamlakatimiz iqtisodiyotini amalga oshirilishi har bir O'zbekistonlikka bog'liq bo'lgan tubdan isloh qilishning mohiyati va maqsadlarini ifoda etadi. Buning uchun esa boqimandachilik ruhiyatiga begona bo'lgan, o'z taqdiri va farovonligi uchun javobgarlik bilan ifodalanuvchi, o'zini tadbirkor usulida tutish va shunday turmush tarziga mo'ljallagan yangicha iqtisodiy fikrlash talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modelini dunyo tan oldi, mamlakatimizning yangilanish va taraqqiyot yo'lida erishayotgan muvaffaqiyatlari shubhasiz va salmoqlidir. Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'z modelining nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov birinchi marta o'zining “O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'li bor”, “O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat”, “O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'z modeli”, “O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” va boshqa asarlarida bayon qilib bordi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning modeli, uning o'rganilishi davlatimiz rahbarining O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish bo'yicha shakllantirgan besh asosiy tamoyilida aniq mujasamlashtirgan.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan ustun qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lishi, uning ichki mazmuni bo'lishi kerak. Bunday qoidaning natijasi sifatida iqtisodni isloh qilishning mustahkam moddiy ba-

zasi shakllantiriladi. Bu tamoyilni hisobga olmaslik iqtisodiyotida krizis holatlarga, xalq turmushi darajasining keskin yomonlashuviga olib keladi.

2. Davlat – iqtisodiyotining bosh islohotchisi va tashabbuskori. Murakkab o'tish davrida iqtisodiyotning boshqaruchanligini yo'qotmaslik, mamlakatda bosh-boshdoqlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun hokimiyatchilik vakolatlari va vazifalari davlat qo'lida saqlanib qolishi kerak. U islohotlarning tashabbuskori bo'lish, iqtisodiy rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotdagi qayta tashkil etish va o'zgarishlarni strategiyasini hamda taktikasini ishlab chiqishi hamda ular izchillik bilan amalga oshirilishi kerak. Bozor iqtisodiyoti tomonga harakat qilingan sari davlat asta-sekin, to'g'ridan-to'g'ri boshqarishdan iqtisodiyotni iqtisodiy vositalar va rag'batlar yordamida bilvosita tartibga solishga o'tib boradi.

3. Huquqiy ta'minlash – iqtisodiy islohotlarning bazasi. Davlat iqtisodiyotining faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar, bozor doirasida subyektlari o'zaro aloqalarini amalga oshirishlari kerak bo'lgan o'ziga xos "Chegaralar shart-sharoitlarini" yaratadi. Amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlar iqtisodiyotdagi qayta tashkil etishlarni mustahkamlaydi, ularning natijalarini yo'qqa chiqarishga, islohotlarni orqaga burishga imkon qoldirmaydi. Bunda odamlarda qonunga bo'ysunish, ijro intizomi, huquqiy madaniyatni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat – iqtisodiy islohotlar kafolati. Bozor iqtisodiyotiga o'tish odamlarning munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratib berishning maqsadi emas, vositasidir. Bu yetakchi tamoyildir, chunki u iqtisodiyotni isloh qilishning pirovard maqsadidan kelib chiqadi. Ijtimoiy himoyaning va ijtimoiy kafolatning ta'sirchan mexanizimigina bozor iqtisodiyoti tomonga dinamik harakat qilishni kafolatlashi, mamlakatda barqarorlikni saqlab qolishi mumkin.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish – iqtisodni isloh qilish o'zbek modelining ustuni. Bu tamoyil iqtisodiyotdagi islohotlarning ichki mantiqini, dinamizmini va harakatlarini belgilaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish mavjud xo'jalik mexanizmini modernizatsiya qilish emas, balki tamoyil jihatdan yangi bo'lgan yana shunday mexanizmini tuzishdir.

Bu odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasidir. Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish bir marta qilinadigan harakat emas, balki ketma-ketlikda keladigan bosqichlar qatoridan iborat uzoq davrdir.

Garchi sezilarli darajadagi qiyinchiliklarni boshidan o'tkazilayotgan bo'lsada mamlakatimizda tadbirkorlik amalga oshgan voqelikka aylanib ulgurdi. U qonun bilan himoya qilingan va rivojlanib boradi. Kuchli shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan, harakatchan, ijodiy faol ko'plab odamlar vatanimiz biznesining yo'liga birinchi bo'lib kirdilar. Lekin holi ora yo'lda turgan, o'z ishini yuritishni xohlagan, ammo uni nimadan boshlashni bilmaganlar ham kam emas.

Kitob ishbilarmon kishilarga, xo'jalik yurituvchilar, ishlab chiqarish tashkilotchilari, tijoratchilar, tadbirkor-bizneschilar, talabalar, biznes maktablari tinglovchilarga, bozorda muvaffaqiyatga erishish "sirlari" bilan qiziquvchi hamma odamlarga foydalidir.

Shuning bilan birga avvaldanoq shuni ta'kidlashni zarur deb hisoblashar ediki, bu makroiqtisodiyot, marketing, menejmet, ishlab chiqarish bo'yicha fundamental akademik darslik emas, balki iqtisodiy fanning erishgan natijalari hamda chet ellardagi va respublikamizdagi tadbirkorlik tajribalarining ommabop bayonidir.

Keltirilgan amaliyot maslahatlarni faoliyatning turli sohalarida qo'llash mumkin va ulardan, maxsus ma'lumotidan qa'tiy nazar, har kim ham foydalanishi mumkin. Asosiy tushunchalar bevosita matnning o'zida mohiyati ochilib, tushuntirilib, sharxlab boriladi, shuning uchun maxsus lug'atlardan foydalanishga zarurat yo'q.

Kitobni tayyorlar ekanmiz, biz, siz aziz ktobxonlarning hozirgi, zamonaviy bozorda maqsadga intilgan holda samarali harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lishingiz haqida o'yladik.

Korxonaning bozor munosabati subyekti sifatidagi faoliyati tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi qattiq raqobat sharoitida kechadi. Aynan raqobatli bozor bu muhiti alohida olingan korxonaning bo'lganidek bir butun olingan jamiyatning ham iqtisodiy rivojlanishi uchun eng qulay imkoniyatlar yaratadi, u ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir.

Bu muammolarni, ularni hal qilishning ratsional usullarini bilish boshlovchi tadbirkorlarga bo'lganidek o'z ishini yuritib, ishlayotgan ishbilarmonlarga ham, korxonalar va iqtisodiy xizmatlar rahbarlariga

ham zarur.

Tadbirkorlik deyilganda, mulk subyektlarining amaldagi qonunchilik doirasida tovarlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatishga va foyda yoki daromad olishga yo'naltirilgan tashabbuskor faoliyati tushuniladi.

1-Bob. TADBIRKORLIKNING VUJUDGA KELISH TAR- IXI VA MOHIYATI

Tadbirkorlikning vujudga kelish tarixi oʻrta asrlardan boshlanadi. Oʻsha vaqtlardayoq savdogarlar, xunarmandlar, missionerlar boshlovchi tadbirkorlarni namoyon qilar edilar.

XVI asrning oʻrtalaridan hissadorlik (aksionerlik) kapitali paydo boʻladi, hissadorlik jamiyatlari tashkil etiladi. Rossiya bilan savdo qilish uchun tuzilgan (1554 yili) ingliz savdo kompaniyasi birinchi hissadorlik kompaniyasi boʻldi.

1600 yili Ost-Ind savdo kompaniyasi tuzildi.

1602 yili Gollandiya Ost-Ind kompaniyasi tuzildi.

1670 yili Gudzon qoʻltigʻi kompaniyasi tashkil etildi.

XVII asr oxirida birinchi aksionerlik banklari paydo boʻldi, manufakturalar tuzildi, sanoatning togʻ, qurol-yarogʻ, gazlama, movut kabi tarmoqlari keng rivojlandi. Va nihoyat biz har qanday haqiqatan ham madaniy boʻlgan iqtisodiyot asosida yotuvchi ijobiy, yaxshi niyatli biznes haqida gaplashamiz va uni oʻrganamiz.

Dunyo madaniyati tarixi shunga birinchi boʻlib iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh harakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik ekanligiga guvohlik beradi. Masalan, buyuk sayyohlar: “Uch dengiz osha” Hindistonga safar qilgan Afanasiy Nikitin, yevropaliklar uchun Xitoyni birinchi boʻlib kashf etgan Marko Pololar bir vaqtning oʻzida tadbirkor kishilar edilar. Ulardan keyingi savdogardan Xitoyda sotish uchun tovarlarni kontarkt boʻyicha olgan, bunda u kredit uchun foydaning 75 foizini toʻlagan. Misollar tadbirkorliklarning – tashabbuskor, harakatchan, tavakkal qilishdan qoʻrqmaydigan, har qanday imkoniyatdan oʻzi uchun, demak, A.Smitning “qoʻrqmas qoʻl” qoidasiga binoan jamiyat manfaatlari uchun ham eng katta foyda bilan ishlayta oladigan odamlar ekanligiga guvoxlik beradilar. Mashhur tushuntirish lugʻatining tuzuvchisi V.Dal “Tadbirkor boʻlish yangi ishni bajarishga qaror qilish demakdir”, deb yozgan edi.

Tadbirkorlik faoliyati doimo asosida foyda olish niyati yotgan oʻz mulkiy javobgarligi ostida tavakkal va xavotir bilan amalga oshiriladi. Busiz samarali iqtisodiyot ham yoʻq, bozor va biznes ham yoʻq.

Ayrim iqtisodchilar tadbirkorlik va biznesni sinonim tushunchalar deb hisoblasalar, boshqalari ularni bir-biridan farqlaydilar.

Tadbirkorlik va biznesning farqlari

Tadbirkorlik	Biznes
Tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, har qanday sharoitda tegishli choralarni topa olish, ijodiy faoliyatning izlanish xarakteri	Erishilgan yutuqni mustahkamlashga intilish, faoliyatning reproduktiv (takrorlash, nusxa olish) xarakteri
G'oyasi bor odam	Foyda keltiradigan ishi bor odam
Start (dastlabki) kapitaliga ega bo'lmashligi mumkin	Kapitalga egalik qiladi
Tavakkalga moyillik, yangilikni yaratuvchi va qo'llovchi, "aloh karam ko'rsatgan" iste'dod	Mu'tadillikka intilish, fikr va harakatlarda konservator, menejerlik iste'dodi
Tadbirkorlik foydasini olish	Kapitalning daromadini olish
Hayotda kamroq uchraydi	Hayotda ko'proq uchraydi

Olimlar jahonda 15-20 foiz atrofidagi odamlargina tadbirkor tarzida fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega deb hisoblaydilar. Ammo tadbirkorlik va biznesning orasida nazariy jihatdan farq bo'lishiga qaramay kundalik hayotimizda biznes (inglizcha "ish" so'zidan) bilan shug'ullanuvchilarning hammasini tadbirkorlik deb hisoblash qabul qilingan.

Respublika matbuotining materiallaridan kelib chiqib, O'zbekistondagi tadbirkorlikning sotsiologik so'rovlar jarayonida aniqlangan ayrim o'ziga xos xususiyatlarni ta'riflash mumkin. Masalan, O'zbekiston tadbirkorlarining ijtimoiy tarkibi quyidagicha: so'ralganlardan 51,3 foizi ilgari davlat sektorida ishlagan; 9,8 foizi oliy o'quv yurtini, texnikum yoki maktabni tugallashlari bilanoq biznes bilan shug'ullana boshlagan; 8,6 foizi biznesning boshlang'ich ko'nikmalariga ega bo'lgan (kooperativlarda ishlashgan, tijorat yoki yakka tartibdagi faoliyat bilan shug'ullanishgan); qolganlari ilgari jamoa xo'jaliklarida xizmat qilishgan, armiyadan qaytishgan, bungacha ishsiz bo'lishgan.

Shunisi xarakterliki, so'rovda qatnashganlarning 11 foizining ota-onalari tijorat bilan shug'ullanishadi, lekin ularning 88,2 foizi bevosita ish jarayonida bilim va ko'nikmalar to'plab borib, qarindoshlarining yordamlariga umid qilmaydilar.

O'zbekistonda tadbirkorlik, asosan erkaklarning ilmi; so'rovda qatnashganlarning faqat 10,5 foizini ayollar tashkil qiladi.

Ko'pchilik holatlarda biznesga 21-30 yoshli (so'rovda qatnashganlarning 40,1 foizi) odamlar kelmoqdalar.

So'rov qilinganlarning ma'lumot darajasi baland: ularning 50 foizi oliy yoki tugallanmagan oliy ma'lumotga, ularning ichida esa 32,9 foizi iqtisodchi mutaxassislikka ega. Demak, biznesga professionallar kirib kelmoqdalar, bozor madaniyatlashib bormoqda.

Tadbirkor nimalarni bilishi va qila olishi kerak?

U tadbirkorlik faoliyati qanday tarzda amalga oshirilishi, amaliy xarajatlar qanday navbat bilan bajarilishi, biznesmenning yo'lida qanday to'siqlar kutib turgani, u qanday xatolarga yo'l qo'yishi mumkin va muvaffaqiyat qozonishi uchun unda qanday imkoniyatlar borligini bilishi kerak. Tadbirkorlik ishini bekamu-ko'st tayyorlashni, ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulotni sotishni bilishi kerak. Shuningdek, u konkret bozor vaziyatlarini baholay olishni, eng avvalo o'ziga ishonishi, o'zi mustaqil qaror qabul qilishni bilishi, ijodkor bo'lishi, buning uchun esa faqatgina biluvchi va qila oluvchigina emas, balki fikrlovchi ham bo'lishi kerak.

Har qanday ish qiyin. Biznes – bu tavakkal. Ammo hisob-kitob qilingan tavakkal. Tadbirkorning tanlovi tasodifiy va oddiy bo'lishi mumkin emas. Uning avali, boshlanishni mushohada qilingan, ko'p bosqichli tanlovdir.

Birinchi tanlov

Xo'jalik yuritish makoni va zamonida o'zligini topish, o'z joyi (tirqish)ni topish. O'z korxonasini tashkil etishning vaqti va joyini topish.

Ikkinchi tanlov

Boshqa bozor tirqishini izlab topish va bu bilan korxonaning yo'nalishi yoki ixtisoslashishini belgilash.

Uchinchi tanlov

Biznesning tashkil qilishning huquqiy shaklini belgilash.

To'rtinchi tanlov

Boshlangan har qanday ishning muvaffaqiyati tanlangan strategiya va taktikaga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligidan kelib chiqib o'zini tutish tarzi xujum yoki himoyani qabul qilish kerak.

Beshinchi tanlov

Maqsadlarga erishish uchun ularni amalga oshirish vositalariga ega bo'lish zarur.

Oltinchi tanlov

Bozorga o'z mahsuloti bilan chiqish. Bu esa oldingizda narxlarni tanlash turibdi demakdir.

Yettinchi tanlov

Vaziyatni aniqlab olgach, siz bundan keyingi qaysi yo'ldan borishingizni hal qilib olasiz va buni uzul-kesil strategiya shakllantirilib, uni amalga oshirish vositalari tanlanib bo'lgunga qadar qilish kerak bo'ladi. Bu qiyin va mas'uliyatli yumush, ammo u tadbirkor – tomondan bo'lgan sizning vazifangizdir.

1.1. Tijorat tuzilmalarining asosiy tashkiliy–huquqiy shakllari

Tadbirkorlikni tashkil etish shakllari

Odamlar nima uchun o'z ishlari bo'lishini xohlashlarining ko'plab sabablari mavjud. Shaxsan mustaqil bo'lish, foyda olish uchun cheklanmagan imkoniyatlar va o'zi uchun qulay vaqtda sevimli ish bilan shug'ullanish – bu odamlarni biznesga intilishga undayotgan sabablarning ayrimlari xolos. Korxonaning tashkiliy–huquqiy shaklini tanlash tadbirkorlik faoliyati strategiyasini muhim omilidir.

Alohidalangan mulkdorlar tadbirkorlikning subyektlaridirlar. O'z mulkiga egalik qilish, foydalanishi, tasarruf etish huquqi mulk egasiga tegishlidir.

O'zbekiston respublikasida tadbirkorlik:

- tadbirkorlikning o'z mulki asosida;
- tadbirkorlikning boshqa jismoniy–huquqiy, shu jumladan yuridik shaxslarning mulkini turli shakllarda jalb qilishi asosida;
- tadbirkorlikning davlat, jamoat tashkilotlarining mulklaridan foydalanishi asosida;
- yuqorida sanab o'tilgan shakllarni qo'shish asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati mulk egasining o'zi tomonidan bo'lganidek, uning mulkini boshqaruvchi subekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Quyidagilar tadbirkorlik subektlari bo'lishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;
- fuqarolar guruhi (sheriklar), shu jumladan, davlat, operativ va boshqa korxona jamoasi;

- xorijlik fuqaro yoki yuridik shaxs;
- aralash mulk sube'ktlari.

Tadbirkorlikni tushunishi va o'zlashtirish uni tarkibiy unsur (elementlar) bo'yicha har xil shakllar va turlarga bo'lish, ajratishni talab qiladi. Shakl bo'yicha tadbirkorlik uchta guruhga: yakka egalik, o'rtoqlik va korporatsiyaga bo'linadi. Bunday tasniflash asosi kapitalga egalik (individual, jamoaviy, aralash) shaklidir. Tadbirkorlikning har bir shakli uning o'ziga xos bo'lgan xarakterli ichki tuzilmaga, qonuniy maqomga, xizmat doirasida u eng samarali bo'lgan o'lchovlar va faoliyat sohalari ega bo'ladi. Ularning har birida band bo'lish mulkdor, menejer va yollanma xodim uchun qancha darajada tavakkal bo'lganidek, xuddi shuncha darajada foyda va afzalliklar bo'lishini ham taqozo etadi, ko'zda tutadi.

Tashkiliy – huquqiy shakli	Ustunliklari	Kamchiliklari
Yakka egalik – (birodarlik egalik qiluvchi ish)	1.To'liq mustaqillik va xarajalar tezkorligi 2.Rag'batlantiruvchi dalillarining maksimumi 3.Mulkdor “O'ziga-o'zi xo'jayin” 4.Faoliyat sirining saqlanishi 5.Biznesni tashkil etishning eng sodda usuli	1.Moliyaviy mablag'larni jalbetishning qiyinligi 2.Faoliyat muddatlarining noaniqligi 3.Cheklanmagan mas'uliyat 4.Ixtisoslashgan menejmentning mavjud emasligi
O'rtoqlik (ikki yoki undan ko'p odam bir nechta mulkdorlik egalik qiluvchi shaxs)	1.Moliyaviy qudratning oshishi 2.Harakatlarning erkinligi va tezkorligi 3.Menejmentning ixtisoslashuvi 4.Tashkil qilishning osonligi	1.Bir-biriga bog'liqlik 2.Bir ishtirokchining firmadan chiqishi yoki vafot etishi firmaning tarqab ketishiga olib keladi 3.Sheriklarning manfaatlarining firmaning boshqarishni qiyinlashtirishga olib keladigan kelishmovchiligi nomutanosibligi 4.To'liq mulkiy javobgarlik
Korporatsiya – (shariklik) – ikki yoki undan ortiq huquqiy shaxs egalik qiluvchi ish.	1.Cheklanmagan mas'uliyat 2.Mavjud bo'lish (faoliyat yuritish vaqti)ning cheklanmaganligi 3.Qo'shimcha kapital jalbetish imkoniyati 4. Kasbiy boshqaruv	1. Korparativ shaklda ba'ziste'molchilar: hech qanday qiymatga ega bo'lmagan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish uchun imkoniyatlar yaratib berilgan 2. Ikki tomonlama:

	5. Ommaviy ishlab chiqa-rish texnologiyalarini qo'llash	foyda va dividendlarga soliq, soliq solinishi. 3.Aksiyalarni ochiq savdoga qo'yilgan korporatsiyalar tijorat siridan voz kechadilar 4.Aksiyalarni tipik ushlab turishning faoliyatsizligi (foydasizligi)
--	---	--

Biznesning qaysi shaklini tanlash masalasida hal qiluvchi omil pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojdir.

1.2. O'zbekistonda tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy shakllari

O'zbekiston Respublikasida odatda iqtisodiy jihatdan alohidalangan, ajralib turadigan huquqiy shaxslar tijorat faoliyatining ishtirokchilaridir. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida "huquqiy shaxs tasarrufida, xo'jalik yoki tezkor boshqaruvida alohidalangan mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha shu mulki bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni qo'lga kiritadigan, majburiyatlar bajargandigan, sudga da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlar tan olinadi. Huquqiy shaxslar mustaqil balans yoki jamlama (smeta)ga ega bo'lishlari kerak", deb ko'rsatilgan.

Tijorat tashkilotlari bo'lgan huquqiy shaxslar xo'jalik yurituvchi o'rtoqliklar va jamiyatlar, ishlab chiqarish kooperativlari, davlat va munitsipal, unitar korxonalar shaklida tuzilishlari mumkin. Tijorat tashkiloti hisoblangan huquqiy shaxs bank muassasida hisob-kitob raqamini ochadi. Notijorat tashkilotlari bo'lgan huquqiy shaxslar muassalar, xayriya va boshqa jamg'armalar mulkdori tomonidan moliyalanadigan iste'molchilar kooperativlari, jamoat yoki diniy tashkilotlar (birlashmalar) shaklida tuzilishlari mumkin.

Huquqiy shaxslar – notijorat tashkilotlarga joriy hisob raqamlari ochiladi. Huquqiy shaxs nizom yoki nizom hamda ta'sis shartnomasi yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida harakat qiladi.

Huquqiy shaxslar – tijorat tashkilotlari – ro'yhatga olinishlari va yagona Davlat reestriga kiritilishlari kerak. Reestr – bu huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lum zarur ma'lumotlarni kiritish lozim

bulgan hisob daftariidir.

Qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini yuritishning juda aniq turlari ko'zda tutilgan. Boshqa shakllarda faoliyat yuritishga yo'l qo'yilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik tashkilotlari (firmalar) tuzadi. Ularni tuzishning, faoliyatining, firmani qayta tashkil qilish va tugatishning umumiy huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida korxonalar haqida"gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Firma – bu tijorat hisob-kitobi tamoyillari asosida ishlovchi xo'jalik, sanoat, savdo korxonasi yoki alohida biznesmen, ya'ni huquqiy shaxsdir.

T/r	Korxonalarning huquqiy shaxslari	Ta'sischilar	Mulkni tashkil qilish manbalari	Majburiyatlar bo'yicha javobgarlik	Qo'shimcha majburiyatlar
1.	Yakka egalik korxona	O'zbekiston Respublikasi fuqarosi	Xususiy yoki davlat val munitsipal korxonalaridan sotib olingan	Musodara qilish fuqarolik prosessual qonunchiliga ko'ra mumkin bo'lmaganida nashqari o'zida bor bo'lgan barcha mulki bilan	Huquqiy shaxs tashkil qilmasdan va xususiy firma (XF) tuzgan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yhatidan o'tkazish
2.	To'liq o'rtoqlik	Yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) tijorat tashkilotlari	Ishtirokchilar (o'rtoqlik) ning a'zolari ning badallari	Ishtirokchilarning o'z mulklari bilan subulush (badal) (birgalikdagi) javobgarligi	Ta'sis shartnomasi asosida tuziladi va ishlaydi. Ishtirokchilarning ulush (badal)lari faqat boshqalarning roziligi bilangina bittasidan ikinchisiga yoki uchinchi shaxsga o'tishi mumkin

3.	Kommandit (aralash) xo'jalik o'rtoqligi	Yakka tartibdagi tad-birkorlar va ulush (bada)lari (yoki) tijorat tashkilotlari	Ishtirokchilarning ulush (bada)lari	O'rtoqlik majburiyatlari bo'yicha o'zining hamma mulki bilan javob beruvchi bir yoki bir nechta ishtirokchi (kommandist) bor	Ta'sis shartnoma-si asosida tuziladi va ishlaydi. Kommandist o'rtoqligini ishla-rini boshqa-rish faqat to'liq javobgarlikka ega bo'lgan ishtirok-chilar tomoni-dangina amalga oshiriladi.
4.	Mas'uliyatli cheklangan jamiyat	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilar ning umum (badallari)	Hamma ishtirokchilar o'z ulushlari doirasida javob beradilar. Jamiyat-ning majburiyat-lari uchun javob ber-maydilar	Ta'sis shartnoma-si va nizom aso-sida tuziladi va faoliyat yuritadi
5.	Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilarning umum (bada)lari	Ishtirokchilarning o'z mulklari bilan solidan (birgalikdagi) subsidar javobgarligi	Ta'sis shartnoma-si va nizom aso-sida tuziladi va faoliyat yuritadi
6.	Ochiq hissadorlik jamiyati	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ochiq obuna bo'lish shaklida	Hamma aksiya egalari o'z	Nizom asosida faoliyat yuritadi-lar. Ishtirokchilar

			aksiyalarni sotish hisobiga	ulushlari (aksiyalar paketi) doirasida	o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa hissadorlarning roziligisiz sotish yo'li bilan ajratishlari mumkin
7.	Yopiq hissadorlik jamiyati	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Aksiyalar-ni faqat ta'sischilar yoki oldindan belgilangan ma'lum boshqa shaxslar doirasiga tarqatish hisobiga	Hamma aksiya egalari o'z ulushlari doirasida	Nizom asosida faoliyat yuritadi. Ishtirokchilarning ulushlari bittasidan ikkinchisiga faqat boshqa hissadorlarning roziligi bilangina o'tishi mumkin
8.	Sho'ba xo'jalik jamiyati	To'liq o'rtoqliklar, ishonchga asoslangan o'rtoqliklar, hissadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklanlangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar (asosiy ta'sischi), shuningdek fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilarning ulushlari	Asosiy ta'sischi bilan birgalikdagi solidariy sub-sidar javobgarlik. Asosiy ta'sischi qarzlarini bo'yicha javob bermaydi	Ta'sis shartnomasi va nizom asosida faoliyat yuritadi
9.	Qaram bo'lgan xo'jalik jamiyati	HJ, MChJ shuningdek fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilarning ulushlari, ustun turuvchi ta'sischi ulushi nizom jamg'armaning 20 foiz-	Hamma ishtirokchilar o'z ulushlari doirasida	Ta'sis shartnomasi va nizom asosida faoliyat yuritadi

			idan ortiq bo'lishi kerak		
10.	Ishlab chiqarish kooperativlari	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilarning pay badallari	Kooperativning har bir a'zosi kiritmagan qo'shimcha badal qismi doirasidagi solidar (birgalikdagi) subsidar javobgarlik	Notijorat tashkilotlari hisoblanib, nizom asosida faoliyat yuritadilar
11.	Iste'molchilar kooperativlari	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ishtirokchilarning pay badallari	Kooperativning har bir a'zosi kiritmagan qo'shimcha badal qismi doirasidagi solidar (birgalikdagi) subsidar javobgarlik	Notijorat tashkilotlari hisoblanib, nizom asosida faoliyat yuritadilar
12.	Davlat va munitsipal unitar korxonalari	Davlat boshqaruvchisi idoralari yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari	Byudjet mablag'lari va boshqa unitar korxonalar-ning ulushlari	O'z mulki bilan mulk egasining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi	Mulkni tasdiqlaydigan nizom asosida faoliyat yuritadi. Xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqarish uchun korxona jamoasiga berilishi mumkin
13.	Jamoat tashkilotlari (birlashmalari)	Fuqarolar	Ishtirokchilarning a'zolik badallari	Ishtirokchilar tashkilotining majburiyatlari bo'yicha, tashkilotlar esa a'zolarining majburiyatlari bo'yicha	Notijorat tashkilotlaridir. Nizom asosida faoliyat yuritadilar

				javob ber- maydilar	
14.	Jamg'ar- malar	Fuqarolar va huquqiy shaxslar	Ta'sischi- larning mulkiy badallari	Ta'sischi- lar o'z- lari tuzgan jamg'armani ing majburi- yati bo'yicha javob ber- maydilar, jamg'ar- ma esa o'z ta'sischi- larining majburiyat- lari bo'yicha javob ber- maydi	Notijorat tash- kilotlari hisoblanadilar. A'zolarga ega bo'lmaydilar, ni- zom asosida faoliyat yuritadi- lar
15.	Uyushmalar va ittifoqlar	Tijorat va notijorat tashkilotlar	Ishtirok- chilarning ulushlari	Uyushmalar (ittifoqlar) o'z a'zolarining majburi- yatlarini bo'yicha javob ber- maydilar. A'zolar uyushmalarni ing maj- buriyatlarini bo'yicha subsidar javob beradi- lar	Uyushmalar va ittifoklar-ning a'zolari o'z mus- taqilliklarini va huquqiy shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Ta'sis shartnoma- si va nizom aso- sida tuziladilar va faoliyat yuritadi- lar

Boshqa shakllar

Kichik korxonalar tadbirkorlikning alohida turi emas, bu termin faqat miqdor parametrlarini bildiradi xolos, tadbirkorlikning shakli esa har xil: yakka tartibdagi korxona, o'rtoliq, MChJ, XJ va boshqa bo'lishi mumkin. Kichik korxonalarga:

- sanoat va qurilishda – ishlaydigan xodimlari soni 100 kishigacha bo'lgan;

- fan sohasida va ilmiy xizmat ko'rsatishda ishlaydigan xodimlari 50 dan 100 kishigacha bo'lgan;

- ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida ishlaydigan xodimlar soni 50 kishigacha bo'lgan;

- ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan tarmoqlarda ishlaydigan xodimlar soni 50 kishigacha bo'lgan;

- chakana savdoda ishlovchi xodimlari soni 5 dan 15 kishigacha bo'lgan huquqiy shaxslar kiradilar.

Kichik korxona xo'jalik faoliyatining xususiyatiga ko'ra ishchilar soni o'zgarishi mumkin.

Kichik korxonalar soliq imtiyozlariga va ular soliqlarni hisoblashning soddalashtirilgan tartibidan foydalaniladilar.

Kichik korxonalar bozorni tovarlar bilan tezda to'ldirishga yordam beradilar, yangi ish o'rinlari yaratadilar, tovarlarning assortimentini yangilashga ko'maklashadilar. Hamma mamlakatlarda KK larni davlat tomonidan qo'llab quvvatlaydilar, ular imtiyozli kreditlar oladilar, soliqlarni past stavkalar bo'yicha to'laydilar va hokazo.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun resabulikamizda ancha ishlar qilinmoqda: O'zbekiston tadbirkorlari ittifoqi va O'zbekiston tadbirkor ayollari uyushmasi, mahalliy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (biznes fond) kabi tashkilotlar kuchayib bormoqda.

2003 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonda ishlab turgan kichik va o'rta biznes subyektlari soni 227 ming donani yoki ro'yxatga olinganlarining 90 foizini tashkil qildi.

Vakolatxona va shaxobchalar

Vakolatxona huquqiy shaxsning u joylashgan xududdan

tashqarida joylashgan va huquqiy shaxsning manfaatlarini himoya qiladigan uning nomidan bitishuvlarni amalga oshiradigan alohidalangan bo'linmasidir. Vakolatxona huquqiy shaxs huquqlariga va mustaqil balansga ega bo'lmaydi.

Shaxobcha (filial) huquqiy shaxsning alohida bo'linmasi bo'lib u joylashgan xududdan tashqarida joylashib huquqiy shaxs vazifalarining hammasini yoki ularning bir qismini shu jumladan, vakolatxona vazifasini ham bajaradi. Shaxobcha vakolatxonaga qaraganda kengroq huquqlarga ega. Shaxobcha huquqiy shaxs emas va o'z mustaqil balansi yo'q.

Vakolatxona va shaxobchalarning rahbarlari huquqiy shaxs tomonidan tayinlanadilar.

Korxona birlashmalari

Korxonalar tomonidan ixtiyoriy ravishda, shartnoma asosida Asotsiatsiya va hokazolar shaklidagi turli xil birlashmalar tuziladi.

O'zbekistonning iqtisodiy amaliyotida xo'jalik assotsiatsiyalari kabi jamoa korxonalari keng tarqalgan. Ularning mohiyati shundaki, firmalar qaysi tarmoqlarga talluqligi, mulk shaklidan qa'tiy nazar o'zlarining boshqaruv vazifalari vakolatlarining bir qismini yangidan tuzilayotgan apparatga o'tkazib birlashadilar. Bunda huquqiy shaxs maqomli, boshqaruv tanidagi yangi korxona tuziladi. Xo'jalik ulanmalarining bir necha turlarini farqlaydilar. Masalan, konsern–ilmiy- texnik va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi ishni, investitsion, moliyaviy, tabiatni muxofaza qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni birga amalga oshiruvchi korxonalarining birlashmasidir.

Konsorsium– firmalar, banklarning kapital loyihalarini amalga oshirish uchun yoki zayomni birgalikda joylashtirish uchun umumiy asosdagi muvaffaqiyat birlashmasidir.

O'zbekistonda korporatsiyalarning xolding kabi ko'rinishi ham mavjud. Uning mahsuloti asosiy kompaniyaning mustaqil huquqiy shaxs bo'lib qoluvchi boshqa (sho'ba) korxonalari aksiyalarning nazorat paketiga egalik qiluvchidir. Tarkibiga 15 ta sho'ba korxonasi kirgan. "O'zqishloqxo'jalikmash – xolding" ochiq turdagi hissador-

lik jamiyati respublikamizdagi birinchi xolding kompaniyasidir.

Xalqaro tadbirkorlikning har xil shakllari mavjud.

Vatanimizda - xorijiy kapitalning integratsion birlashuvining samarali shakli qo'shma korxona (h.k "Sovplatsital") dir. Har bir tomon qo'shma korxonaga o'z ulushini investitsiya kapitali, market-ing tajribasi, xodimlar, xom-ashyo resurslari shaklidagi ulushini qo'shadi.

Hissadorlik va shartnomaviy (mulkka birgalikda egalik qilishsiz) qo'shma korxonalarni farqlaydilar.

Ko'pchilik hollarda mamlakatimizda qo'shma korxona tuzishda jarayoniga xorijiy sherik sifatida murakkab xalqaro tadbirkorlik kompaniyalarning (transmilliy kompaniyalar TMKning) shax-obchalari qatnashadi. Mintaqalararo moliyaviy-sanoat guruhlari (MSG), ("Yengilsanoatinvest", "Ilyushin", "O'rtaoselektron" va boshqalar) TMK ning kurinishlaridandir.

Unitar korxona deb mulkdor unga biriktirib qo'ygan mulkka egalik huquqiga ega bo'lmagan tijorat tashkiloti tan olinadi.

Notijorat tashkilotlari – o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida foyda olishni qo'ymagan va olingan foydani ishtirokchilar o'rtasida taqsimlamaydigan huquqiy shaxslardir. Notijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyatini faqat u o'zlari nima maqsadlarni ko'zlab tuzilgan maqsadlarga erishishga imkon berganligi uchun amalga oshiradilar.

O'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib foyda olishni belgilagan huquqiy shaxslar tijorat tashkilotlaridir. Bundaylarga to'liq o'rtoqliklar, ishonchga asoslangan o'rtoqliklar, hissadorlik jamiyatlari, ko'pincha mas'uliyatli jamiyatlar, ishlab chiqarish kooperativlari, davlat va munitsipal unitar korxonalar kiradilar.

1.3. Hissadorlik jamiyatlari

Hissadorlik jamiyati – bu shunday jamiyatki, unda har bir ishtirokchining ulushi qimmatbaho qog'ozlar – aksiyalarda ifodalanadi, korxona boshqarishdagi ovoz berish huquqi esa unda bo'lgan aksiyalarga proporsional taqsimlanadi.

Korporatsiyalar mulkiga bo'lgan huquq aksiyalar bo'yicha qismlarga bo'linadi va shuning uchun korporatsiyaning egalari aksiyadorlar yoki hissadorlar deb ataladilar. Chiqarilayotgan aksiyalarning umumiy nominal qiymati hissadorlik jamiyatining nizomiy

jamg'armasi yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Hissadorlar jamiyat foydasining bir qismini bitta aksiyaga To'g'ri keladigan dividend shaklida oladilar.

Hissadorlik jamiyatlarining ikkita turi: ochiq va yopiq turlari mavjud. Ochiq turdagi korporatsiyalarda (OTHJ) (aksiyalari ochiq savdoda bo'lgan va uzlarining moliyaviy faoliyatlari haqida xabardor qilib turadiganlarda) hissadorlik soni yuzlab va minglab kishilarni tashkil qilishi mumkin. Yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlarda (YOTXJ) o'z moliyaviy – xo'jalik faoliyatining natijalarini oshkor qilmaydilar.

Odatda, mehnat jamoasining a'zolari, shuningdek, oraliq korxonalarining xodimlari aksiyalarning egalriga aylanadilar. Garchi egalik qilish va boshqarish katta ochiq va yopiq jamiyatlarda, korporatsiyalarda bo'lingan bo'lsa ham hissadorlar boshqaruvda o'zlarining ovoz berish huquqidan foydalanib bilvosita qatnashishlari mumkin.

HJ ni boshqarishning oliy organi hissadorlarning umumiy majlisi bo'lib, uning mutloq vakolatiga nizomni va nizomiy jamg'armani o'zlashtirish, direktorlarni saylash, faoliyatining yillik natijalarni tasdiqlash kiradi. Umumiy majlislar oralig'ida jamiyatning boshqarishning oliy organi direktorlar kengashi hisoblanadi. Umumiy majlis direktorlar orasidan bosh (ijrochi) direktorni yoki jamiyatning prezidentini saylaydi.


Direktorlar kengashi ushbu korporatsiya aksiyalari egalari tomonidan saylanadi. Rivojlanish jamg'armasini ajratish, rivojlanish yo'nalishlari, hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar (agar foyda olingan bo'lsa) miqdori haqidagi masalalarni hal qilish direktorlar kengashining vakolatlariga kiradi. Korporatsiyada saylovlar teng emas, ya'ni hissador o'zi egalik qilayotgan har bir aksiya uchun bitta ovozga ega bo'ladi.

Agar korxona hissadorlik jamiyati sifatida tashkil topayotgan bo'lsa, unda uning ta'sischilari aksiyalarga yozilishlari kerak bo'ladi. Ularda:


- bo'lajak "XJ" ning faoliyatining predmeti va maqsalari;
- faoliyat yuritish muddatlari;
- ta'sischilarning tarkibi va ta'sis konferensiyasining o'tkazilish sanasi;

- nizomiy jamg'armaning belgilanayotgan miqdori;
- aksiyalarning soni va turlari, ularning nominal qiymatlari;
- aksiyalarga yozilishning boshlanish va tugallanish muddatlari va talab etiladigan boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

Hissadorlik jamiyati tuzilmasi



Biroz soddalashtirishganda tizim quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



**Muhokama uchun savollar
(Amaliy topshiriq)**

Biznesning tashkil qilishning uchchala shakli – yakka egalik qilish, o‘rtoqlik, korporatsiya har birining ma’lum afzalliklari bor. Biznesning turli xil shakllari belgilaridan qaysilari ustunlikka, qaysi birlari esa kamchilikka kirishini aniqlang. Belgining raqamini uning uchun ajratilgan joyga qo‘ying.

Eslatma: ayrim belgilar bir necha marta ishlatilishi mumkin.

Yakka egalik qilish

Ustunliklar: _____

Kamchiliklar: _____

O‘rtoqlik

Ustunliklar: _____

Kamchiliklar: _____

Korporatsiya

Ustunliklar: _____

Kamchiliklar: _____

Belgilar ro‘yhati:

1. To‘liq mulkiy javobgarlik.

2. Hissadorlar o'z aksiyalarini korxonaga zarar yetkazmasdan sotishlari va sotib olishlari mumkin.

3. Hissadorlar korporatsiyalar uchun belgilangan maxsus soliqni to'lamaydilar.

4. Korxona tuzish uchun huquqshunos yollash zarurati.

5. Foydadan olinadigan maxsus soliq to'lash zarurati.

6. Cheklangan mas'uliyat.

7. Agar korxona xaddan tashqari kattalashib ketsa, boshqarish va egalik qilishni bo'lish.

8. Korxonaning o'lchamlari cheklangan.

9. Aksi oldindan aytib o'tilmagan bo'lsa, egalaridan birining o'limi o'tishi bilan korxona o'z faoliyatini to'xtatadi.

10. Bir nechta shaxsning moliyaviy resurslarini birlashtiradi.

11. Mulkdor (ega) avtomatik tarzda "o'ziga o'zi xo'jayin" ga aylanadi.

12. Korxonaning o'lchamlariga cheklovlar mavjud emas.

13. Mulk bilan amallar bajarilganidagi qiyinchiliklar.

14. Mulk bilan amallar o'tkazishdagi nisbiy yengillik.

15. Cheklanmagan uzoq vaqt davomida faoliyat yuritishi mumkin.

16. Biznesning tashkil qilishning eng oddiy usuli.

2- Bob. TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI

Bobning asosiy masalalari:

- Tadbirkorlik turlari, ularning o'ziga xos tomonlari va faoliyat sohalari.
- Ishlab chiqarish tadbirkorlikning mohiyati. Uning tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari orasidagi belgilovchi roli.
- Ishlab chiqarish omillari, tadbirkorlikning samaradorligini oshirishda ularning roli.
- Maslahat (konsultativ) tadbirkorligining mazmuni, rivoj lanish istiqbollari.

2.1. Ishlab chiqarish tadbirkorligi

Ishlab chiqarish tadbirkorligi xilma-xildir. Har qanday bizni qayta ishlab chiqarish sikli–mahsulot va xizmatning ishlab chiqarish, tovarlarni almashtirish va taqsimlash, ularni iste'mol qilish bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgani uchun tadbirkorlik faoliyatining quyidagi turlarini: ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy tadbirkorlikni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari keyingi o'n yilliklarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hammasida tadbirkorlikning maslahat-konsultativ turi(konsalting) alohida mustaqil turga aylanmoqda. Shu bilan bir vaqtning o'zida tadbirkorlikning sanab o'tilgan turlari bir nechta kichik turlarga bo'linadi. Umumiy tasavvurda tadbirkorlikning turlari va kichik turlarini 3-chizma jadvaldagi ko'rinishda tasvirlash mumkin (quyidaga qaralsin).

Ishlab chiqarish tadbirkorlikni yetakchi turi deb atash mumkin. Bunda mahsulot, tovarlar ishlab chiqariladi. Biroq bozor iqtisodiyotiga o'tishda aynan shu faoliyat sohasi eng ko'p salbiy o'zgarishlarga duchor bo'ldi: xo'jalik aloqalari uzildi, moddiy-texnika ta'minot buzuldi, mahsulotni sotish keskin pasaydi, korxonalarning moliyaviy ahvoli yomonlashdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi yillarda *tijorat tadbirkorligi* jadal rivojlandi. U tovarlar va xizmatlar bilan xarakterlanadi. Bunda tezroq natijaga erishish mumkin. Ilgari kun tomondan cheklangan bu soha asosan xususiy, yakka tartibdagi tadbirkorlik si-

fatida shiddat bilan rivojlana boshladi. Bu sohaga ko‘plab chaqqon, tashabbuskor, kuchga to‘la odamlar o‘z kuchlarini yo‘naltirdilar. Ba‘zan ularning orasida ilgari “soyadagi” iqtisodga mansub deb hisoblashgan odamlarni firmaga, odatda, 10-12 foiz rentobillikni ta‘minlasa, tijorat firmalari 20-30 % hatto undan ham ortiq rentabil-likka erishishlari mumkin.

Moliyaviy (yoki moliya-kredit) tadbirkorligi tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir. Uning faoliyat sohasi–muomala, qiymatlar almashinuvidir. Moliyaviy faoliyat ishlab chiqarish faoliyatiga ham, tijorat faoliyatiga ham kirib boradi, biroq u bank, sug‘urtasini va boshqa shakllarda mustaqil ham bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy bitim tadbirkorlik faoliyatining oldingi turlaridek uncha katta rentabillik me‘yorini ko‘zda tutmaydi: bu kattalik 5-10 foizni tashkil etishi mumkin.

Keyingi yillarda maslahat tadbirkorligi kabi istiqbolli shakl rivojlanmoqda. U ko‘plab yo‘nalishga ega va uning bizning mamlakatimizda rivojlanish darajasini boshqa mamlakatlardagisi bilan solishtirib shunday xulosa chiqarish mumkinki, yaqin yillarda konsalting shiddat bilan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi.

Ishlab chiqarish tadbirkorligining mohiyati

Nisbatan mustaqil bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati turlari o‘zaro chambarchas bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradilar. Bunda ustuvorlikni tadbirkorlik faoliyatining hamma turlarini belgilab beruvchi va eng murakkabi bo‘lgan ishlab chiqarish tadbirkorligiga berish kerak. 3-chizmadan ko‘rinib turganidek, ishlab chiqarish tadbirkorligiga innovatsion, ilmiy–texnik faoliyat, bevosita tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, ularning ishlab chiqarish uchun ishlatish, shuningdek bu sohalaridagi axborot faoliyati kiradi.

Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanishni istagan har qanday tadbirkor konkret qaysi tovarlarni ishlab chiqarishi, qaysi xizmat turlarini ko‘rsatishni xohlashini belgilab olishi kerak. So‘ngra bu tadbirkor marketing faoliyatiga kirishadi. Tovarlarga bo‘lgan ehtiyoj iste‘molchilar, tovarlarning xaridorlari, ulgurchi, ulgurchi–chakana savdo tashkilotlari bilan aloqaga kirishadi. Tadbirkor va tovarning bo‘lajak xaridorlari o‘rtasida tuzulgan kontrakt muzokaralarini rasmiy (farmal) yakuni bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday

kontrakt tadbirkorlik (xavfi) tavakalni eng kam (minimal) darajaga tushuradi. Aks holda tadbirkor tovar ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatini faqat og'zaki kelishuvga ega bo'libgina boshlaydi. Endigina yuksalayotgan bozor munosabatlari sharoitida og'zaki kelishuvlarning ishonchiligi uncha katta emas, (tavakal) esa sezilarli darajada baland.

Ishlab chiqarish tadbirkorligining navbatdagi bosqichi ishlab chiqarish omillarini sotib olish yoki ijaraga olish (yollash). Ishlab chiqarish tadbirkorligi agar olinadigan foyda yig'indilar xarajatlari-dan 10-15 foizdan ortiq bo'lgandagina ijobiy ma'noga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarish omillari

Ma'lumki, ishlab chiqarish omillari qatoriga ishlab chiqarish fondlari, ish kuchi, axborot kiradi. Ishlab chiqarish fondlari o'z navbatida asosiy va aylanma vositalarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari (asosiy vositalar) o'z ichiga: binolar, inshootlar, o'tkazuvchi qurilmalar, quvvat mashinalari, ji-hozlar, ish mashinalari va uskunolari, laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, transport vositalari va moslamalari, ishlab chiqarish in-vertarlari, boshqa asosiy fondlar kiradi. Asosiy ishlab chiqarish vositalariga ishlab chiqarish sexlari, zavod boshqarmasi, texnik xon-alarining binolarini ham kiritadilar.

Ishlab chiqarishning aylanma vositalari (mehnat predmetlari) xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i va energetik resurslari, idishlar va o'rama (tara) materiallari, past qiymatli va tezda ishdan chiqadigan asboblari va ishlab chiqarish inventari, ta'mirlashlar uchun ehtiyot qismlardan tashkil topdi. Sotib olinadigan butlovchi mahsulotlar va korxonaning o'zi tayyorlagan yarim fabri-katlarni, korxonaning o'zi tayyorlagan tugallanmagan va ishlab chiqarish yarim fabrikatlarni, kelgusi davrlar xarajatlarini ham shunga kiritamiz.

Kelgusi davrlar xarajatiga alohida to'xtab o'tish kerak bo'ladi. Ularning bosh vazifasi – yangi mahsulotni o'zlashtirishning dastlabki paytlarda ajralgan xarajatlarni ta'minlash. Keyinchalik bu sarflar ish-lab chiqarish harakatlariga kiritiladi.

Ishchi kuchini tadbirkor e'lonlar berish yo'li bilan mehnat birjasi, ishga joylashtirish agentligi, do'stlari tanishlari yordamida yollaydi. Xodimlarni tanlaganda ma'lum ishga nomzodning ma'lumotini, un-

ing kasbiy ko'nikmalarining darajasini, oldingi ishi tajribasini, shaxsiy sifatlarini hisobga olish kerak.

So'ngra tadbirkor moddiy, moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyati haqida, ishlab chiqarishning mo'ljallanayotgan xizmatlarni sotish bozori haqida o'ziga zarur bo'lgan axborotni qo'lga kiritadi.

3-jadval

Tadbirkorlikning turlari			
Ishlab chiqaruvchi	Tijoratli	Moliyaviy	Maslahatli
Innovatsiyali	Savdo	Bank	Umumiy boshqaruli
Ilmiy-texnikali	Savdo-sotiq	Sug'urtali	Ma'muriy
Mahsulotni ishlab chiqarish	Savdo-vositachilik	Auditorli	Moliyaviy boshqaruv
Xizmat ko'rsatish	Mahsulot birjalari	Lizing	Kadrlarni boshqarish
Mahsulonlarni ishlab chiqaruv iste'moli		Fond birjalari	Marketing
Xizmatlarni ishlab chiqaruv iste'moli			Ishlab chiqarish
Ma'lumotli			Axborot texnologiyalar
			Maxsus xizmat

2.2. Moliyaviy resurslarga ehtiyoj va uning

Tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish pul xarajatlari bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarish-tadbirkorlik faoliyati uchun pulga umumiy talab (P_t)ni quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqish mumkin.

$$P_t = P_x + P_m + P_v + P_a + P_x,$$

bunda, P_x –yollanma xodimlarga to'lash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari;

P_m - sotib olinadigan xom-ashyo, materiallar yarim fabrikatlar, mutlovchi mahsulotlar, yoqilg'i, energiyaning qiymati uchun pul to'lovi;

P_v – mehnat vositalari (asosiy ishlab chiqarish fondlari, binolar, inshootlar, o'tkaziluvchi uskunalar, jihozlar, hisoblash texnikasi, asboblari, transport vositalari va boshqalar)ni sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul xarajatlari;

P_a - tadbirkor sotib olayotgan axborotning pul to'lovi;

Πx_1 - boshqa tashkilotlarning va shaxslarning xizmatlari (qurilish ishlari, transport xizmati va boshqalar)ga to'lovlar puli.

Davlat idoralari munitsipal-moliyaviy organlar, soliq inspeksiya-si ishlab chiqarish tadbirkorligining bilvosita ishtirokchilaridir. Ular ko'pincha tadbirkorlardan respublika va mahalliy byudjetlarga soliqlar, majburiy to'lovlar, chegirmalar, jarima, poshlina va hokazolarni undirib olib, fiskal vazifalarni bajaradilar.

Ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi

Tadbirkorning ishlab chiqarish faoliyatining natijasi mahsulot yoki ishni, xizmatlarni xaridorga, iste'molchiga sotish va ma'lum bir pul summasini olishdir. Pul tushumi va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq korxonaning foydasini tashkil qiladi.

Tadbirkorlikning yalpi (balans) va qoldiq (sof) foydasini farqlaydilar. **Yalpi foyda** tadbirkorda u mahsulotni ishlab chiqarishga va sotishga sarflagan, ammo soliq to'lashgacha bo'lgan hamma xarajatlarini to'lagandan so'ng qolgan pul yig'indisini tashkil qiladi. **Qoldik (sof) foyda** yalpi foydadan soliqlar, chegirmalar, turli xil to'lovlar, jarimalar, poshlinalarni va hokazolarni chiqarib tashlagandan so'ng aniqlanadi va u ishlab chiqaruvchi – tadbirkor faoliyatining pirovard natijasini tashkil etadi.

Bunday tadbirkor faoliyatining umumiy moliyaviy bahosini **rentabillik ko'rsatkichi** bilan aniqlaydilar. U qoldiq foydaning ishlab chiqarishning to'liq xarajatlari yig'indisiga nisbati bilan aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarish xarajatlarining to'liq yig'indisi 40 million so'mni, sof foyda esa 6,0 million so'mni tashkil qilsa, rentabillik 15 foizga ($6/40 \times 100\%$) teng bo'ladi. G'arbdagi tadbirkorlar uchun bunday rentabillik yuqori, vatanimiz tadbirkorligi uchun esa minimal hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, bu holatda ishlab chiqarishning ko'lami ham ahamiyatga egadir.

2.3. Tijorat tadbirkorligi

Tijorat tadbirkorligining faoliyat maydoni bo'lib tovar birjalari va savdo tashkilotlari xizmat qiladilar.

Tovar birjasi – bu ulgurji tovar bozorining xaridor tovarlarining namunalarini oldindan qo'rqmaydigan va tovarlarning minimal partiyalari oldindan belgilanmaydigan ko'rinishidir.

Tovar birjasida tijorat vositalari va ularning xizmatchilari savdo

amallarini birgalikda ishlab chiqilgan va birdek rioya qilinadigan qoidalar bo'yicha o'tkazish uchun ixtiyoriylik asosida birlashadilar.

Bunday birjaning maqsadi – erkin raqobatni boshqarish mexanizmini yaratish va uning yordamida hamda talab va taklifni hisobga olgan holda real bozor baholarini aniqlash. Tovar birjasi muntazam ishlab turgan ommaviy tovarlarning o'rnini bosuvchilar (don, kumir, metall, neft, yog'och va boshqalar) ulgurji bozorining rivojlangan shaklidir. Bunday bozorlar iktisodiy rivojlangan mamlakatlarning hammasida ko'p yillardan beri ishlab turibdi.

1994 yili esa O'zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasi (O'z.RTXB); OTXJ ta'sis etildi. "Uzulgurjibirjasavdo" uyushmasining va "Uzmoliyainvest" XJ ning respublika firmalari va xududiy kompaniyalardan 27 tasi uning ta'sischilari bo'ldilar. 1995 yili u Mustaqil Davlatlar mamlaktlaridagi hamda uzoq xorij davlatlaridagi hamkasablari bilan o'rnatilgan birjalararo aloqalarning afzalliklaridan keng miqyoslarda foydalanish hisobiga ham aylanmalarni ko'paytiradi.

Amalda tovar yetkazib beruvchilar bilan odatdagi savdoni o'tkazishdan tashqari tovar birjalarida fyuchers bitishuvlari deb ataladigan amallarni o'tkazish chog'ida kelishuvlar tuzilishi keng tarqalgan. Fyuchers (muddatli) bitishuvlari shartnoma tuzilayotgan paytda ham naqd mavjud bo'lmagan tovarlar bilan amalga oshiriladi. Amalda tovarning o'zining emas unga kelajakda egalik qilish huquqining oldi–sotdisi ro'y beradi, bu esa fermaga ertagi kunga ishonch tug'diradi.

Tovar birjalari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar:

- savdo bitishuvlarni tuzish bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatish;

- tovar savdosini tartibga solish, savdo amallarini tartibga solib turish va savdo nizolarini hal qilish;

- narxlar, ishlab chiqarishning holati, narxlarga ta'sir qiluvchi boshqa omillar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va ularni chop etish.

Tovar birjalari ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

Yopiq birjalardagi savdolarda xaridor va sotuvchi o'rtasida turuvchi brokerlar – birja vositalari qatnashishlari mumkin, ochiq birjalardagi savdolarda esa faqat birjaga tashrif buyurganlarga ishtirok etadilar. Birja amallarining xarakteriga ko'ra tovar birjalari real tovar birjalari va faqat fyuchers bitishuvlari tuziladigan fyuchers

birjalariga bo‘linadi. Tijorat bitishuvi agar sof foyda xarajatlarning kamida 20-30 foizini tashkil qilgandagina maqsadga muvofiqdir.

Tovarlar va xizmatlarni xarid qilish, sotish bo‘yicha amallar

Tijorat tadbirkorligining asosiy mazmunini xarid qilish sotish bo‘yicha, boshqacha qilib aytganda tovarlar va xizmatlarni qayta sotishga oid amallar va bitishuvlar tashkil qiladi. Tijorat tadbirkorligining umumiy tizimi ishlab chiqarish tadbirkorligi faoliyatining chizmasiga ma’lum darajada o‘xshash. Lekin undan farqli o‘laroq bu yerda moddiy resurslara o‘rniga keyin iste’molchiga sotiladigan tayyor sotib olinadi. Shunday tarzda bunda mahsulot ishlab chiqarish o‘rniga tayyor mahsulot sotib olish asosiy o‘rin egallaydi.


Tijorat bitishuviga kirishishdan burun **bozorning marketing tahlilini** qilib olish zarur.

Har qanday tijorat bitishuvi dasturni umumiy turda o‘z ichiga:

- savdo vositachilik xizmatlari (tovar sotib olish, uni transportirovka qilish, sotish, reklama ishlarini yetkazish, zarur hujjatlarni rasmiylashtirish)ni bajarish uchun xodimlarni yollash;
- tovarni saqlash va sotish uchun zarur bo‘lgan binolar, omborlar, bazalar, savdo shaxobchalarini sotib olish yoki ijaraga olish;
- keyinchalik sotish uchun tovar xarid qilish;
- bitimni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini kreditga jalb etish va keyinchalik kreditni va undan foydalanganlik uchun foizlarni qaytarish;
- vositachilik vazifalarni bajaruvchi boshqa tashkilotlar va shaxslarning xizmatlaridan foydalanish va bu xizmatlar haqini to‘lash;
- bitishuvni rejalashtirish, rasmiylashtirish va tartibga solish uchun talab qilinadigan axborotni olish yoki sotib olish;
- tovarni xaridorga sotish va tushurib olish;
- bitimni ro‘yhatga olish, soliqlarni respublika va viloyat moliya idoralariga to‘lovlarni to‘lashni oladi.

2.4. Model – savdo firmasidagi marketing ishining datur

Omllarni tadqiq qilish



2.5. Moliyaviy tadbirkorlik

Moliyaviy tadbirkorlik – bu pullar, qimmatbaxo qog‘ozlarni sotib olish – sotish bo‘yicha moliyaviy – kredit bitimlaridir. Moliyaviy bitimlarda inflyatsiya (pulning qadrsizlanishi) omilini hisobga olinishi kerak.

Yuqorida biz moliyaviy tadbirkorlikning asosiy faoliyat maydoni tijorat banklari va fond birjalari deb aytib o‘tgan edik. Bozorning bu institutlarining mohiyati qanaqa, ular nimani ifoda etadilar?

Tijorat banki – (asosan) tijoart tashkilotlarining to‘lov asosida kreditlaydigan, pul qo‘yilmalarini (depozitlarni) qabul qilish va mijozlarning topshirigiga ko‘ra boshqa hisob-kitob amallarini ham bajaruvchi hissadorlik tipidagi moliya-kredit muassasidir. Depozit (jalb etilgan) va ssuda qilingan mablag‘larning foiz stavkalari o‘rtasidagi farq tijorat bankining daromad manbaidir.

Tijorat banklarining amallari uch guruhga bo‘linadi. Bular: **passiv** (mablag‘larni jalb qilish); **aktiv** (mablag‘larni joylashtirish); **komission – vositachilik** (komissiya xarajatlariga haq olib mijozning topshirigiga ko‘ra turli amallarni bajarish) dir.

Fond birjalari. Bozorning yana bitta vositasi, moliyaviy tadbirkorlikning unsur (element)laridan biri bo‘lib fond birjasi xizmat qiladi. Fond birjasi deyilganda kapitalning safarbarligini ko‘tarishga va aktivlarning real qiymatini aniqlashga yordam beruvchi, tashkiliy jihatdan shakllangan, muntazam ishlab turgan qimmatbaho qog‘ozlar bozori tushuniladi. Bu yerda vositachilik firmalari vakillari mijozlarning topshirigiga ko‘ra qimmatbaho qog‘ozlarning oldi-sotdi bitishuvlarini amalga oshiradilar. Ularning eng yirigi 1792 yili asos solingan Nyu-York fond birjasidir. Agar fond birjasining subyektlari qimmatbaho qog‘ozlar chiqaruvchi mitenlar va ularni sotib oluvchi inverterlar bo‘lsalar, brokerlar, diler, maklerlar birjadagi sadolarning ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin. Ularning so‘ngisi maosh olib ishlab, savdolarning tashkilotchisi sifatida chiqadi.

Fond birjasining maqsadlari va vazifalari:

- savdoni qonuniyligini ta‘minlash;
- axborotning ochiqqligini ta‘minlash;
- qimmatbaho qog‘ozlarning sotishuvchanligi qo‘llab – quvvatlash;
- joriy talab va taklif asosida narxlarni shakllantirish;

- investorlar va emitantlarning, shuningdek qimmatbaho qogʻozlar bozorining professional ham ishtirokchilarning manfaatlarini himoya qilish;

- ish muhitini yaratish va uni professionalizmning yuksak axloqiy meʼyorlar doirasida saqlab, qoʻllab-quvvatlab turish;

- Oʻzbekistonni xalqaro moliya bozoriga va fond birjalari hamjamiyatiga interatsiyalash.

Oʻzbekistonning qimmatbaho qogʻozlar bozorida bosh rol ni 1994 yili respublika universal tovar-fond birjasi negizida taʼsis etilgan “Toshkent” respublika fond birjasi oʻynaydi. “Toshkent” respublika fond birjasi muntazam ravishda oʻz byulletinini chiqarib turadi, unda oʻtkazilgan savdolarning obzorlari beriladi, mamlakatimizning fond bozorida ishlarining axvoli tahlil qilinadi, birja yangiliklari haqida xabar qilinadi.

Fond birjasi tashkiliy va samarali savdo vositasidir.

2.6. Maslahat (konsultativ) tadbirkorligi

Maslahat xizmatlarining mohiyati va bosqichlari

“Konsultant” soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib maslahat beruvchi maʼnosini anglatadi. Bu soʻz ostida oʻz sohasi boʻyicha maslahat beruvchi maʼlum bir soha mutaxassisi tushuniladi. Xorij amaliyotida boshqaruv masalalari boʻyicha tijorat, pulli maslahat ***konsalting*** nomini olgan.

Menejment – konsalting mohiyati boshqaruv masalalari ish bilan bir vaqtda muammolarni va (yoki) imkoniyatlarni aniqlash va baholashni, tegishli choralarni tavsiyasi va ularni amalga oshirishdagi yordamni qoʻshgan holda xolis maslahatlar va yordam taqdim etishda ifodalanadi.

Konsalting xizmatlari bir marta beriladigan ogʻzaki maslahatlar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Biroq koʻpchilik holatlarda ular loyihalar shaklida taqdim etiladi va quyidagi asosiy bosqichlar: muammolarni aniqlash; qarorlar (loyihalar)ni ishlab chiqish; qaror (loyiha)larni amalga oshirishni oʻz ichiga oladi.

Loyihaning hajmiga qarab yakunlovchi bosqich bir necha kundan bir necha oygacha vaqtni olishi mumkin. Baʼzida mijozlar bilan aloqalar koʻp yillarga choʻzilishi mumkin.

Maslahat berishning usullari

Maslahat berish usullari turli xil bo'lishi mumkin. Maslahat berishning uchta turi: ekspert, jarayoniy va o'qituvchi (o'rgatuvchi) turlari eng mashhur va keng tarqalgandir.

Ekspert maslahati berish. Konsalting eng passiv shakli. Bu yerda konsalting diagnostikani, qarorlar va ularni tatbiq etish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishni mustaqil amalga oshiradi. Bunda mijoz faqat axborot bilan ta'minlaydi, xolos.

Jarayoniy maslahat berishda konsalting firmasining mutaxassisarlari loyihani ishlab chiqishning hamma bosqichlarida mijoz bilan, uni o'z g'oyalari, takliflarini bildirishga da'vat etib o'zaro faol aloqa qiladilar; maslahatchilar mijoz bilan birga muammolarni tahlil qiladilar va takliflarni ishlab chiqadilar.

O'rgatuvchi, ya'ni ta'lim beruvchi maslahat berishda mutaxassislarning bosh vazifasi qarorlarni ishlab chiqish uchun g'oyalar vujudga kelishi uchun zamin tayyorlashdir. Bunday maqsadda ular mijozlarning ishxonasida ma'ruzalar, seminarlar o'tkazadilar, mijozlar uchun o'quv qo'llanmalari ishlab chiqib, bu bilan zarur hamma nazariy va amaliy axborotni taqdim etadilar.

Amaliyotda maslahat berishning sanab o'tilgan usullardan birortasi ham sof holda qo'llanilmaydi, balki qoida tariqasida, uchchalasidan tuzilgan kombinatsiya qo'llaniladi.

Konsalting xizmatlari turli tuman bo'lishlari mumkin. Menejment bo'yicha maslahatchilar Yevropa spravochnik – ko'rsatgichi hozirgi vaqtda 8 guruhga birlashtiruvchi maslahatchilar konsalting xizmatlarining 84 turini ajratib ko'rsatgan. Bular:

Umumiy boshqaruv, ma'muriyatchilik, moliyaviy boshqarish, kadrlarni boshqarish, marketing, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, ixtisoslashtirilgan xizmatlardir.

Injiniring – ishlab chiqishni loyihalashtirish, qurish va foydalanishning, shuningdek tovarlarni yaratish va sotishning hamma bosqichlarida turli xildagi muxandislik va ilmiy xizmatlarni taqdim etishdir. Injiniring to'liq sikli o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

1) loyihaning marketing jixatdan maqsadga muvofiqligini tadqiq qilish;

2) loyihani maxalliy sharoitlarga bog'lab amalga oshirishning texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganish;

3) muxandislik-qurilish loyihalarini tuzish, uskunalarni baholash,

xodimlarni tayyorlash;

4) korxonani ishga tushurish va korxonadan foydalanish paytida uni kuzatish.

Injiniring firmalari xalqaro ittifoqlarga muxandislik maslahat firmalarining Yevropa qo'mitasiga (xodimlari soni 110 ming kishi bo'lgan 500 dan ortiq firmalar), muxandislarning xalqaro federatsiyasi (xodimlari soni 150 ming kishi bo'lgan 6 mingta firma)ga birlashganlar.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari turli xil xizmatlar uchun haq belgilanganidangina mavjud bo'la oladigan xizmatlar bozorga mansubdir.

Uning rivojlanish darajasi aholi va korxonalarning xizmatlar bilan ta'minlanganligi, ularning sifati va o'z vaqtida ko'rsatilishini belgilaydi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining mavjudligi taqdim etilayotgan xizmatlarning talab etilganligi va pulliligi, u siz faqat yaqin o'tmishda bo'lgangidek "tirgalmaydigan, tikishtirilmaydigan servis" deb ataluvchi xizmatlarga bo'lishi mumkin bo'lgan rakabatning talab qilinganligi bilan belgilanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari maishiy, kommunal, transport, sayyohlik, madaniy, tibbiy, ta'lim xarakteridagi, banklar va sug'urta kompaniyalari, savdo va boshqa xizmatlarni taqdim etadilar. Bozor munosabatlariga o'tish hamma turdagi xizmatlarning rivojlanishi uchun impuls (turtki) berdi.

Xulosalar

1. Tadbirkorlik faoliyati turlarini katta sonini to'rtta asosiy guruhga guruhlash mumkin.

Bular: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, maslahat guruhlaridir.

2. Tadbirkorlik faoliyatining eng muhim turi ishlab chiqarish tadbirkorligidir. Bu yerda qayta ishlab chiqarish siklining asosiy fazasi – mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish amalga oshiradi. Tadbirkorlikning bu turiga innovatsion, ilmiy-texnik faoliyat, mahsulotni bevosita ishlab chiqarish kiradi.

3. Ishlab chiqarish omillarini sotib olish yoki ijaraga olish ishlab chiqarish faoliyatining eng muhim bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

4. Tijorat tadbirkorligining asosiy mazmunini xarid qilish sotish

bo'yicha amallar va bitishuvlar va xizmatlarni qayta sotish tashkil qiladi. Tijorat tadbirkorligining faoliyat maydoni bo'lib tovar birjalari va savdo tashkilotlari xizmat qiladi.

5. Moliyaviy (moliya-kredit) tadbirkorligining faoliyat sohasi aylanma, qiymatlar almashinuvidir. Moliyaviy faoliyatning o'ziga xosligi shundaki, u ishlab chiqarish faoliyatiga ham, tijorat faoliyatiga ham kirib keta oladi, shu bilan birga o'zi ham mustaqil – bank, sug'urta va boshqa faoliyat shaklida bo'lishi mumkin. Moliyaviy tadbirkorlikning asosiy faoliyat maydoni tijorat banklari va fond birjalaridir.

6. So'ngi o'n yilliklarda dunyoning rivojlangan mamlakatlari-da tadbirkorlikning mustaqil turli – konsalting ajralib chiqib, alohidalanmoqda. Uning bizning respublikamizda va iqtisodiy rivojlangan boshqa mamlakatlardagi rivojlanishni solishtirib ko'rib, xulosa qilish mumkinmi, yaqin yillar ichida tadbirkorlik faoliyatining bu turi shiddat bilan rivojlanadi.

O'zingizni tekshiring.

1. Siz tadbirkorlikning qanday turlarini bilasiz?
2. Ishlab chiqarish tadbirkorligining mohiyati nimadan iborat?
3. Nima uchun ishlab chiqarish tadbirkorligini tadbirkorlikning asosiy, yetakchi turi hisoblaydilar?
4. Tijorat tadbirkorligining asosiy mazmuni nima tashkil qiladi, nima uning faoliyat maydoni bo'lib xizmat qiladi?
5. Moliyaviy tadbirkorlik faoliyatining sohasi nima, uning o'ziga xosligi nimada va faoliyat maydoni qanaqa?
6. Nima uchun bugun tadbirkorlik faoliyatining maslahat turini ajratib ko'rsatadilar, uning bundan keyingi istiqbolli rivojlanish yo'llari qanday?

3-Bob. KORXONANING ISHLASH MEXANIZMI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy roli sezilarli darajada o'zgaradi. Bu o'zgarish bir qator yo'nalishlar bo'yicha amalga oshadi.

- Bozorning korxona oldiga qo'yayotgan asosiy talabi – shunday ishlashni, faoliyatining natijasi faqat mahsulot chiqarishgina bo'lib qilmasdan, balki mahsulot chiqarish foyda olishni ta'minlasin, ya'ni doimo daromadlar xarajatlardan, sarflanayotgan resurslardan ortiq bo'lsin, bu ortiqlik qancha yuqori bo'lsa, korxona xuddi shuncha foyda bilan ishlaydi.

- Sotsiologik iqtisodiyot u yoki bu mahsulot assortimentni bo'yicha doimiy taqchilik sharoitlarida bo'lganligi uchun ilgari mahsulotni iloji boricha ko'p miqdorda ishlab chiqarish talabining o'rniga endi faqat mahsulot ishlab chiqarishgina emas, balki uni sotish va mahsulot ishlab chiqarishni faqat uning sotilish uchun kafolat bo'lgan taqdirdagina ko'paytirish talabi kelmoqda.

- Korxona faoliyatining yuqori tashkilotlar temasidagi cheklashlari o'rniga korxona faoliyatining ko'pchilik masalalari bo'yicha mustaqillik berilmoqda, lekin bu mustaqillik uchun to'lanadigan haq korxonaning noqobilligi va bankrotligi imkoniyatidir, ya'ni korxona bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ishlay olmaganligi va uni tashlab chiqishi kerak bo'lgani sababdan u iqtisodiy soha doirasidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Demak, bunday vaziyat ro'y bermasligi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitlarida xo'jalik yuritishda korxonaning o'zini tutishining ko'rinishi o'zgaradi va bu o'zgarishlar korxona faoliyatining o'zini tutishi ko'p masalalariga taaluqlidir.

Korxona – tadbirkorlik obyekti, mulkiy majmua yoki to'rtta asosiy belgisi: alohida bo'lgan mulki, tashkiliy birligi, mulkiy javobgarligi, xo'jalik aylanmasida o'z nomidan mustaqil chiqishni bo'lgan asosiy ishlab chiqarish birligidir.

O'zbekiston Respublikasining **“O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar haqida”**gi qonuniga ko'ra huquqiy shaxs huquqlariga ega bo'lgan, o'ziga mulk sifatida tegishli bo'lgan mulkdan foydalanish asosida, qonunchilikka muvofiq mulkning hamma shakllari tengligi va o'zaro ishlashi raqobat sharoitlarida mahsulot ishlab

chiqaradigan va sotadigan yoki almashtiradigan, ishlar bajaradigan, xizmatlar ko'rsatadigan mustaqil xo'jalik subyekti korxona hisoblanadi.

Ushbu qonunga ko'ra korxona faqat davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs hisoblanadi.

Korxonaning faoliyati ishlab chiqarish (texnik tayyorgarlik va ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish) qayta ishlab chiqarish (ish yollash, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va), aylanma (ishlab chiqarishning moddiy-texnik ta'minoti va mahsulotini sotish) jarayonlaridan tashkil topadi.

Korxonani tadqiq qilganda uning ikki tarkibiy qismi:

- korxonaning ichki muhiti – odamlar, ishlab chiqarish vositalari, shular va axborot:

- tashqi muhit, mahsulotning iste'molchilari, mahsulot jo'natuvchilar, raqobatchilar, davlat organlari va boshqalar ko'rib chiqiladi.

Korxonaning tuzilmasi

Har bir korxona ishlab chiqarish bo'linmalari boshqaruv organlari va xodimlarga xizmat ko'rsatish tashkilotlaridan tashkil topgan. Tuzilma tushinchasini tarkib, iqtisodiy obyektning qurilmasi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Korxonaning umumiy va ishlab chiqarish tuzulmasini farqlaydilar.

Ishlab chiqarish korxonani boshqarish bo'yicha boshqarish xizmati va xodimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilotlarning tarkibi, ularning soni, kattaligi va o'rtasidagi egallab turgan maydonlari o'lchamlari xodimlari soni va o'tkazish qobiliyatlari bo'yicha oralaridagi nisbatlari korxonaning umumiy tuzulishini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish tuzulmasi – bu ishlab chiqarish bo'linmalari (sexlar uchastkalar)ning tarkibi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadir.

Korxonani boshqarishning tashkiliy tuzulmasi – bu oralarida firmaning maqsadlariga erishish uchun zarur vazifalarni bajarishni ta'minlovchi o'zaro aloqalar mavjud bo'lgan boshqaruv organlarining yig'indisidir.

Korxonaning bo‘linmalari

Asosiy ishlab chiqarish bo‘linmalarida boshlang‘ich xom-ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish bo‘yicha ishlab chiqarish bosqichlari bajariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish bo‘linmalari – asosiy ishlab chiqarish asboblari. Ehtiyot qismlari energiya va xonadonlar bilan ta‘minlanadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar – korxonaning infratuzulmasi (ombor va transport bo‘linmalari, turar joy – kommunal xo‘jaliklari, oshxonalar, sixatgohlar va boshqalar) dir.

Boshqaruv xizmatlari

Bularga korxonada amalga oshiruvchi ilmiy tadqiqotlar, tayyorlash, ta‘mirlash va modirizatsiyalashtirish, nazorat va oldini olish, xizmat ko‘rsatish, saqlash, transportda jo‘natish, (zararsiz usulda to‘q qilish), tiklash, konirvatsiya qilish, boshqaruvni zararsizlantirish va tozalash jarayonlari kiradi.

Korxonada boshqaruvning vazifalari: hisob, statistika, tahlil, rejalashtirish, qarorlar qabullash va ularni ijro kilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish, nazorat va rag‘batlantirish (motivatsiya)dir.

Tashkilotning korxonadagi asosiy vazifalari: me‘yorlik, vaqt va makonda muvofiqlashtirish, tezkor rejalashtirish, dispecherlik qilish, mehnatni taqsimlash va koperatsiyalash, resurslar bilan ta‘minlash, ish joylarini tekislashni ishlab chiqish, qulay va oqilona mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarishning rezervlarini aniqlash va ratsionalizatsiyalashtirishdir.

Korxonadagi ishlab chiqarish jarayoning muhim unsuri tanlangan texnologiya variantidir. Tanlangan texnologiya korxonaning ish ko‘rsatkichlarining ikkitasi bilan chambarchas bog‘langandir. Bular:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot narxi;
- mahsulot sifati darajasidir (bu masalalar quyida ko‘rib chiqiladi).

Har qanday korxona tashkiliy huquqiy, mulk shakllaridir, qaysi tarmoqqa mansubligi, chiqarayotgan mahsuloti va ko‘rsatayotgan xizmatlaridan qa‘tiy nazar rasmda chizma viy aks ettirilgan ochiq iqtisodiy tizimdir. Bunda:

1-blok. Asosiy asosiy vazifasi resurslarni qayta ishlash bo‘lgan korxona;

2-blok. Kirishdagi resurslar – mehnat, moddiy, moliyaviy resurslar;


3-blok. Chiqishdagi resurslar, ya'ni qayta ishlangan resurslar (tayyor mahsulotlar, ishlab chiqarish chiqindilari, foyda, pul mablag'lari);

4-blok. Korxona o'zaro aloqada hamkorlikda ishlaydigan ijtimoiy muhit – davlat, munitsipal organlar, qonunchilik;

5-blok. Tabiiy muhit – tabiiy resurslarni, qazilmalarni, havo va suvni iste'mol qilish;

6-blok. Bozor bilan o'zaro aloqa, marketing. Shunisi diqqatga sazovorki ushbu blok kirishda qanday o'zaro harakat qilsa, chiqishda ham xuddi shunday o'zaro harakat qiladi.

7-blok. Kirishdagi resurslar bilan chiqishdagi resurslarning o'zaro nisbati korxonadagi iqtisodiy ishni, korxonaning iqtisodiyotini tashkil qiladi.



Korxonaning bozor modeli

Taklif qilingan chizmani batafsilroq ko'rib chiqamiz. Yuqorida bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdan iborat ikkita vazifani bajarishi haqida aytib o'tgan edik. Bu vazifalarni qanday bajarayotganiga bog'liq ravishda korxona gullab yashnaydi yoki noqobil bo'lib qoladi.

Qaror qabul qilish uchun ishonchli axborotni to'plash va tahlil qilib chiqish zarur. Bu axborot o'z ichiga:

- **tovarlarning sifatlarini (xarakteristikasini):** ular pirovard

iste'mol tovarmi yoki oraliq mahsulotmi, tayyor mahsulotmi yoki yarim fabrikat ekanligi, servis xizmatiga zarurati bor yoki yo'qligi, yoki iste'molchini narx koniktraktimi yoki yo'qligini, raqobatchilarning baholari qandayligini;

- **bozorning umumiy ta'rifini:** iste'molchilar soni ko'p yoki kamligini, tovarlarni sotib olish usullari, xaridorlarning tovarlarga, mahsulotni yetkazib berish shartlari va muddatlariga munosabatini, raqobatchilarning sotish shartlarini;

- **tovarlarni taqsimlash kanallari:** ishlab chiqaruvchilar va istemolchilarning o'rtasida vositachilarning bor yo'qligini, bor bo'lsa ularning sonini;

- **bozorning konkret holatini:** raqobatning mohiyati va darajasini, tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat bor yoki yo'qligini, bo'lsa uning darajasi qanaqaligi;

- **qonunchilik cheklovlarini:** marketing faoliyatiga to'sqinlik qiladigan qonunchilik cheklovlari bor yoki yo'qligini;

- marketing sohasida **boshqaruv faoliyatining darajalarini** oladi.

3.1. Narxning tartibga soluvchi roli

Xo'jalik reja asosida yuritish sharoitlarida korxonaga baholar, xarajatlar darajasi va rentabillik normativi rejalashtirilib berilardi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida bu kattaliklar korxonaning o'zi tomonidan erkin belgilanadi va bundan korxonaga xecham yengil emas.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx ishlab chiqarishni sezilarli darajada tartibga soldi va shakllanadigan foydaning miqdoriga va kurashning xarakteri hamda natijalarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning bahosi korxona uchun u va iste'molchi o'rtasida kelishilgan narxidir. Kelishilgan narx (Kn) larning bir nechta varianti mavjud:

1–variant. $Kn = \text{tannarx} + \text{foйда}$;

2–variant. $Kn = \text{talab} - \text{taklif}$;

3–variant. raqobatchining narxi $i > Kn < \text{raqobatchining narxi } j$

Kelishilgan narxni belgilashning birinchi variant, to'laligicha ishlab chiqarish sharoitlari bilan belgilanadi va korxona doirasida jam-

lanadi, shu xududdan chetga chiqmaydi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida bu qoidadan istesnodir. Chunki, odatda, bozorda ishlab chiqaruvchi bitagina bo'lmaydi va korxona, agar u yashab qolishni hamda rentobelli ishlashni iqtisodiy vakumda yashashga haqli emas. Marketing xizmatlari ular yaxshi ishlagan sharoitlardagi bozorning yetarli darajada axborotga boy holatining tasvirini beradilar. Ikkinchi va uchinchi variantlar real vakllikka yaqinlashtirgan.

Birinchi, eng sodda variant bo'yicha narxlarni hisob – kitob qilganda ishni nazarda tutish lozim, bahoning asosini tashkil qiluvchi tannarx – obyektiv ko'rsatkich bo'lsada, lekin boshqaruv qarorlarini qabullagan paytda faqat unga asoslanish mumkin emas.

Bozordagi muvaffaqiyat ishlab chiqaruvchi mahsuloti tannarxining katta yoki kichikligiga emas, balki tayor kopcha, kim tomonidan, qachon, qayerda va qanday ishlab chiqarishi va taklif qilinishiga bog'liqdir. Bu variantni tovarni ishlab chiqaruvchi firma ushbu bozorda yetakchi bo'lgan vaqtda va moliyaviy faoliyat natijalari rahbaryatini qoniqtirgan hollarda ishlanishi mumkin.

Bu variant foydani taqchil (defitsit) tovar taklif qilmayotgan ishlab chiqaruvchi va xarid qilayotganida tovarning narxi u uchun hal qiluvchi omil bo'lmagan istemolchi o'rtasida yetarli darajada adolatli taqsimlash imkoniyatini beradi.

Korxonalarni belgilashning *ikkinchi variantida* qilinayotgan talab va tovarning tannarxi asos uchun olinadi. Korxona uchun vazifa shunday tarzda qo'yiladi: tovarning bitta birligi uchun baho belgilangan va qancha miqdordagi tovar sotilganida korxona real foyda ola boshlashini aniqlash zarur.

Vazifa teskari ham bo'lishi mumkin: mahsulotning bozorda sotilishi mumkin bo'lgan tahminiy miqdori aniq, narx qanday bo'lganda sotishning bu hajmi zararlarga olib kelmasligini aniqlash zarur.

Narxlarni shakllantirishning *uchinchi varianti* bozordagi raqobatning darajasini hisobga oladi va ko'pincha yaxshi natijalar beradi. Ishlab chiqaruvchi raqobatchilarning narxlar dinamikasini urganadi va xuddi shunday tovarga raqobatchi qancha baho qo'yishi mumkinligini aniqlaydi. Bunda asosiy e'tibor xarajatlarni kamaytirish va foydani kuchaytirishga qaratiladi.

Bahoni belgilashning uchta variantini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida narx – mahsulotning

raqobatbardoshligini ta'minlash omilidir. Boshqa, bunda kam bo'lmagan, balki bundan ham muhimroq bo'lgan omil ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatidir.

3.2. Mahsulot sifatining tartibga soluvchi roli

Mahsulotning - uning qaysi maqsadlarga mo'ljallangan muvofiq keluvchi, ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun yaroqliligini belgilovchi xususiyatlarning yig'indisidir.

Har qanday mahsulot turli parametrlardan iborat bo'ladi. Bular: **texnik** parametrlar:

a) mo'ljallanish parametrlari - tovarning qo'llanish sohalari va u bajarishi mo'ljallangan vazifalarni belgilovchi xususiyatlar;

b) erganamik parametrlar tovarning inson organizimining mehnat amallarini bajarish jarayonidagi xususiyatlariga muvofiqqligini xarakterlaydi;

v) konstruktiv parametrlar (ishonchlilik, uzoq muddatlilik va hokazo);

g) estetik parametrlar tovarning tashqi qiyofasini belgilovchi, uning tashqi ko'rinish jihatdan yaxshi qabul qilinishini xarakterlaydigan parametrlardir.

Normativ parametrlar – ular tovarning bozordagi standartlarning majburiy me'yerlari bilan tartibga solinuvchi xususiyatlarini xarakterlaydilar.


Mahsulotning sifatiga uni chiqarish rejasini ishlab chiqish, bosqichida asos solinadi, tayyorlash bosqichida ta'minlanadi, sotishga chiqarish bosqichida saqlanadi va foydalanish bosqichida qo'llab-quvvatlab turiladi.

Ko'pchilik hollarda iste'molchi narxdan zarar ko'rib bo'lsa ham sifatni afzal ko'radi, chunki u yuqori sifat foydalanish, ta'mirlash bo'yicha ketadigan xarajatlarni kamaytirishini va o'zining ehtiyojlarini to'laroq qondirishini tushunadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati bu korxonaning bugungi iqtisodiyotining o'ziga xos ramzidir. Xorijlik menejerlar ta'kidlaganlaridan, sifat uncha emas, bu bir butun falsafadir, unda xarajatlarni pasayishi, mehnat unumdorligini o'sishi oldingi plonga chiqib olgan mahsulot sifati tomonidan siqib chiqarilgan.

Korxonalar ishlab chiqarishning samaradorligini ko‘tarish maqsadlarida mahsulot sifatining boshqarishning kompleks tizimini ishlab chiqmoqdalar va joriy etmoqdalar. Bu tizim ishlab chiqarayotgan mahsulotning yuqori darajadagi sifatini belgilash, ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar, usullar, normativlar va boshqaruv usullarining yig‘indisidan iboratdir.

Sifatni ko‘tarish – bu korxona uchun katta mehnat talab qiladigan ishdir, chunki u amalda korxona faoliyatining hamma yo‘nalishlariga tegib o‘tadi va pirovard natijada turmush sifati kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichiga chiqadi.



3.3. – rasm. Mahsulot sifatini shakllantirish

Mahsulotning sifati mehnat, mehnat predmetlari, mehnat vositalari, texnologiya, boshqaruv, bir butun olganda umuman ishlab chiqarish sohasi sifatining natijasidir.

Agar biz oraliq mahsulotning sifati bo‘lishiga erishsak, u esa o‘z

navbatida pirovard mahsulotning sifatini shakllantiradi, keyingisi bevosita turmush sifatiga chiqadi. Bu yerda esa mahsulot va xizmatlar sifati kabi tarkibiy qismlar bilan bir qatorda mudofa qobiliyatining, tabiiy muhitning, infratuzilmaning, milliy boylikning sifati ham ishtirok etadi (u ham hisobga olinadi).

Sifatni ta'minlash qaysidir bo'linma tomonidan amalga oshiriladigan texnik vazifa sifatida emas, balki firmaning butun tashkiliy tuzilmasidan o'tuvchi tizimiy (doimiy, sistematik) jarayon sifatida tushuniladi.

- sifatning yangi tushunchasiga korxonaning tegishli tashkiliy tuzilmasi javob bo'lishi kerak;

- sifat masalalari faqat ishlab chiqarish sikli doiralaridagina emas ishlab chiqish, konstruksiyalash, marketing va sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish jarayonlarida ham dolzarbligicha qoladi.

- sifat mahsulotni ishlab chiqaruvchining emas, iste'molchining talablarini qondirishga mo'ljallanishi kerak.

- sifatni oshirish ishlab chiqarishda loyihalash-tirishimizdan boshlab, sifatni nazorat qilish jarayonida avtomatlashtirilgan o'lchovlar bilan tugallangan holda yangi texnologiyani qo'llashni talab qiladi.

- sifatni hamma tomonlama ko'tarishga hamma xodimlarning bu ishda ma'natli ishtiroki bilangina tushuniladi.

3.3. Korxona qimmatbaho qog'ozlar bozorida

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxona sarmoyalarning to'plashning an'anaviy shakllari foydaning bir qismi, amortizatsiya jamg'armasi bilan bir qatorda fond bozori, ya'ni qimmatbaho qog'ozlar bozorining omillari ham kuchga kiradi. Bunga nizomiy jamg'armasi qismlarga bo'lingan va korxona aksiyalar va obligatsiyalar shaklidagi qimmatbaho qog'ozlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladigan hissadorlik jamiyati kabi korxonaning shunday tashkiliy – huquqiy shakli ham moyil qiladi.

Korxona manfaatlarini nuqtai nazaridan qimmatbaho qog'ozlar chiqarish (emmisiya) – kapitalni akkumulyatsiya qilishning muhim richagi (vositasi)dir. Korxona emitent sifatida chiqishi, ya'ni aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar chiqarishi mumkin bo'lganidek, u xuddi shuningdek investor bo'lishi o'zining mablag'larini boshqa korxon-

alarning qimmatbaho qog'ozlariga kiritishi va boshqa emitentlarning qimmatbaho qog'ozlariga egalik qilib, dividendlar (daromadlar) olishi mumkin.

Mablag'larini boshqa korxonalarning yoki tijorat banklarining bo'lganidek davlat banklarining ham qimmatbaho qog'ozlarga Mablag'larini kiritar ekan. Korxona bu bilan investitsiyalar portfelini shakllantiradi. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

- korxona mo'tadil daromaddan manfaatdor bo'lganida konservativ;
- korxona yuqori daromad olishga va o'z kapitalini yo'qotishning katta tavakkali bilan kapitali o'stirishga mo'ljal olganda agressiv-tajavvuskor bo'lishi mumkin.

Korxona investor mablag'larini qimmatbaho qog'ozlarga qo'yar ekan:

- qo'yilmalarning xavsizligini ta'minlash;
- qo'yilmalarning daromad keltirishi;
- kapitalining o'sishi maqsadlarini ko'zlaydi.

Bu maqsadlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud, chunki qo'yilmalar xavfsizligi, foyda, daromadlilik bilan bo'lganidek, xuddi shuningdek kapitalining o'sishi bilan ham ziddir, ularni bir-biri bilan qo'shib bo'lmaydi. Kompromisga erishish uchun qo'yilmalarni diversifikatsiyalash, ya'ni kapitalni barcha kompaniyalarning ko'plab qimmatbaho qog'ozlari o'rtasida taqsimlash kerak.

Korxonaning investitsiya portfeli quyidagicha bo'lishi mumkin:

- *diversifikatsiyalangan* bo'lishi mumkin, bunda qimmatbaho qog'ozlarning har bir turiga hamma qo'yilmalarning umumiy qiymatining 10 foizi kiritilgan bo'ladi va bu raqam 5 foiz gacha pasayishi mumkin;

- *kuchsiz diversifikatsiyalangan* bo'lishi mumkin, bunda foiz 10 dan oshiq bo'ladi, u qancha baland bo'lsa, diversifikatsiya shunchalik kuchsiz bo'ladi.

Masalan, korxona o'z investitsiya portfelini shunday taqsimlaydi:

15 foizini yetkazib oluvchi korxonalarning aksiyalariga; 20 foizi neftni qayta ishlovchi kompaniyalarning aksiyalariga; 17 foizi neftni transportirovka qilish va sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalarning aksiyalariga; 13 foizi neft mahsulotlari asosidagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning aksiyalariga.

Bu korxonalarning hammasi yagona texnologik siklga

bogʻlangan. Bunday investitsiyalar portfelining shakllanishi yoki investitsiyalar portfelining bunday shakllanishi muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkinmi? Yoʻq deb hisoblash haqiqatga yaqinroq boʻlardi. Har bir konkret korxonaga yuqori foizda qoʻyilma kiritilganidan tashqari mablagʻlar yagona texnologik sikl tashkil qiluvchi korxonalarga ham kiritilgan. Bunday qoʻyilmalarning yagona oqlovchi, shundaki, ular xom-ashyo moʻljali qilinganligidir, bu majmuaning mahsulotlarga esa talab favqulodda katta.

Qimmatbaho qogʻozlarga qoʻyilmalar (moliyaviy investitsiyalar) yetarli darajada tavakkalchilik, shuning uchun qoʻllanmalarining daromadligini oshirish yoki oxirgi mablagʻlarni ham umuman yoʻqotib qoʻymaslik uchun fond bozori konʻyunkturasini muntazam ravishda kuzatib borish kerak.

Fond bozori konʻyunkturasini kuzatib berishni korxona oʻzi mustaqil yoki trosit kompaniyalari deb ataluvchi alohida, kompaniyalar yordamida amalga oshirishi mumkin. **Trast kompaniyasi** – bu investorining mablagʻlarining eng foydali va ishonchli tarzda joylashtirishni taʼminlovchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi, investorning mablagʻlari qimmatbaho qogʻozlariga qoʻyilgan korxonalarning moliyaviy ahvolini kuzatib beruvchi, qoʻyilgan mablagʻlardan foizlarning oʻz vaqtida olinishining taʼminlovchi korxonadir.

Shunday qilib, investor-korxona oʻz mablagʻlarini qimmatbaho qogʻozlarga kiritayotganida amal qilishi lozim bir qator qoidalar mavjuddir. Ular quyidagilardir:

- pullarni qimmatbaho qogʻozlarga qoʻyayotganda bu eng katta tavakkalchilik bilan qilinayotgan qoʻyilma ekanligini yodda saqlash kerak;

- pullar bugun ertaga boʻladigan puldan qimmatroq turadi, chunki olingan pullarni yana investitsiya qilish mumkin.

- qoʻyilmalardan olinadigan daromad investor daromad olish uchun qilishga tayyor boʻlgan tavakkalga toʻgʻri proporsionaldir.

- qoʻyilmalar tavakkalining va daromadligining orasidagi ziddiyatni yumshatish uchun qoʻyilmalarni qimmatbaho qogʻozlar orasida boʻlganidek xuddi shuningdek emitentlar oʻrtasida ham diversifikatsiya qilish zarur.

- eng yaxshi qoʻyilmalar – mahsulotlarga talab muntazam ravishda qondirilmaydigan kompaniyalarning qimmatbaho qogʻozlariga

qilingan qo'yilmalaridir.

3.4. Korxonaning noqobilligi (Bankrotligi)

O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlit haqida"gi qonuniga muvofiq Xo'jalik yurituvchining bankrotligi ostida uning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga haq to'lash bo'yicha, kreditorlarning talablarini qarzdorning majburiyatlari uning mulkining qiymatidan oshib ketganligi sababli byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlarni ta'minlashni noqobillikni qo'shgan holda, qondirishga qodir emasligi tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt kreditorlarning talablarini ularni ijro qilishning muddati boshlangan kundan boshlab uch oy muddat davomida bajarmasi yoki bajarishga oldindanoq qobil bo'lmasa uning joriy to'lovlarini to'lashni to'xtatganligi Xo'jalik yurituvchi subyektning bankrotligini tashqi belgisidir.

Xo'jalik yurituvchi subyekt bankrotlik fakti Xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilganidan keyingina yoki bu haqida xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi ixtiyoriy tugatilayotgan paytda rasmiy ravishda e'lon qilgandan so'ng bankrot deb hisoblanadi.

Qarzdor korxonaga nisbatan quyidagi choralar qo'llanilishi mumkin:

- *qayta tashkil qilish* (qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratish, qayta tuzish);

- *tugatish – ishlab chiqarish va xo'jalik vakolatlarining to'xtatilishini bildiruvchi huquqiy hujjat*. U yo kreditorlar nazorati ostida ixtiyoriy tugatishga, yo xo'jalik sudining qarori bilan majburiy tarzda amalga oshiriladigan tugatishga aylanadi.

- *tinch kelinish, ya'ni qarzdor va kreditorlar o'rtasida to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarni to'lashning muddatini cho'zish* yoki kreditorlarga to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlarning keyinroq muddatga surilishini yoxud qarzlardan chegirishiga oid kelishuvga erishish.

Qarzdor korxonaning mulki kreditorlar o'rtasida quyidagi tartibda taqsimlanadi.

Mulkni sotuvdan tushgan pullar bankrot bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektni rejasiga asosan kreditorlar o'rtasida taqsimlanadi. To'lovlar qarzdorning mulklari sotilishiga qarab amalga oshiriladi. Uzil-kesil to'lovlar mulkni sotishdan so'ng tugatish rejasiga muvofiq

yakuniga yetkaziladi. Tugatish ishlari, ishonchli shaxs vazifalarini bajarish va xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlarini davom ettirish bilan bog‘liq xarajatlar navbatdan tashqari to‘lanadi.

Birinchi navbatda ishchi va xizmatchilarning mehnat huquq kelib chiqadigan talablari, ekspertlar, auditorlar, advokatlar uchun haq to‘lash to‘g‘risidagi talablari, ish vaqtida matriyalik, sog‘liqqa yetkazilgan boshqa zarar, shuningdek boquvchisini yo‘qotish munosabati bilan ko‘rilgan zararlarni haqidagi talablar qondiriladi.

Ko‘rsatilgan talablar to‘liq qondirib bo‘lingach, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar va jinoyat yoki ma‘muri huquqbuzarlik tufayli ularning mulkiga yetkazilgan zararni haqidagi talablar qondiriladi.

Ikkinchi navbatda davlat va maxalliy soliqlar va byudjetga soliq shaklida bo‘lmagan To‘lovlar bo‘yicha talablar hamda davlat sug‘urta idoralarining majburiy sug‘urta bo‘yicha talablari qondiriladi.

Uchinchi navbatda kreditorlarning garov bilan ta‘minlangan talablari qondiriladi.

To‘rtinchi navbatda garov bilan ta‘minlanmagan kreditorlarning talablari qondiriladi.

Beshinchi navbatda xo‘jalik yurituvchi subyekt – qarzdorni boshqarishda qatnashmaydigan, aksiyalar egalari bo‘lgan mehnat jamoasi a‘zolari va investorlarning talablari qondiriladi.

Qolgan hamma talablar oltinchi navbatda qondiriladi.

Korxonaning faoliyati to‘xtatilayotganida tugatish komissiyasi tuzuladi. U kreditorlarni tugatish fakti haqida xabardor qilishi, kreditorlarni aniqlash va debetor qarzlarni undirish bo‘yicha choralar ko‘rishi, shuningdek korxona tugatilishi bilan ishdan bo‘shatilgan xodimlarning ishga joylashishlariga yordam berishi kerak. Tugatish davomida oraliq tugatish balansi tuziladi. Unda tugatilayotgan korxona mulkining tarkibi haqida ma‘lumotlar, kreditorlar tomonidan taqdim etilayotgan talablar ro‘yhati va ularni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi ma‘lumotlar bo‘lishi kerak. Bu balans korxonaning ta‘sischisi (ta‘sischilari) yoki korxonani tugatish haqida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasi o‘zining aybi bilan yetkazilgan zarar uchun javob beradi.

Bunga bir misolni ko‘rib chiqamiz.

Hissadorlik jamiyati sudning qaroriga ko‘ra to‘lovlarga noqobil sifatida tugatilayapti. Tugatish haqida qaror qabul qilingan vaqtga

tuzilgan buxgalterlik balansi quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:
ming so'mlarda

Aktiv		Passiv	
Nomoddiy aktivlar	500	Nizomiy jamg'arma	2000
Asosiy vositalar	2000	Zaxira jamg'armasi	900
Ta'sischi bilan hisob – kitoblar	1000	Uzoq muddatli zayoli	2500
Ishlab chiqarish zahiralari	500	Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob–kitoblar	600
Hisob–kitob raqami	200	Byudjet bilan hisob–kitoblar	600
2800	Bankning qisqa muddatli kredit		
		lari	400
Balans	7000		7000

Jamiyat naminali 1000 sumda bo'lgan 2500 ta aksiya chiqargan sharoitda u tugatilganidan so'ng jamiyatning har bir aksiyasiga to'g'rikeladigan to'lovlarni aniqlaymiz.

Zararlar qoplanib, qisqa muddatli va joriy majburiyatlarning hammasi bo'yicha hisob – kitoblar qilib bo'linganidan so'ng jamiyatini mulkning qiymati

$7000 - (2800 + 400 + 600 + 1000) = 1600$ ming so'mni tashkil qiladi. Shunga muvofiq ravishda bitta obligatsiya egasi 1600 000:
 $2500 = 640$ so'm oladi.

O'zbekistonda bankrotlikni amalga oshirish amaliyoti xali uncha rivojlanmagan, bu jarayonning amalga oshirilish miqdori kam. Lekin bozor munosabatlari rivojlangan sari bankrotlik hozir yangi korxonalarini tashkil qilishsak oddiy voqyeaga aylanib qoladi.

XULOSALAR

1. Korxonaning foydasi korxona faoliyatining maqsadi va natijasiga ataladi.
2. Korxona foydani oshirishga intilishida nisbiy erkinlikning to'rt darajasiga egalik qiladi. Bular:
 - Korxonalarni belgisi;
 - Xarajatlarni shakllantirish;
 - Mahsulotlarning ro'yhati va assortimentini tanlash;
 - Mahsulot hajmlarini shakllantirish.
3. Korxona foyda olishni mahsulotni sotish hajmlarini o'stirib borgandagina ta'minlashi mumkin, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish yuzasidan olib

borilayotgan marketing ishlariga va mahsulotga qilinayotgan xarajatlarning darajasiga bog'liqdir.

4. Uzoq vaqt davomida korxonalarning norentobil ishlashi rahbariyatini xushyor tortishi kerak, chunki korxona noqobil tashkilotlar qatoriga tushib qolishi, bu esa uni bankrotlikka olib kelishi mumkin.

O'zingizni tekshiring

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi korxonaning o'zini tutishi rejalari iqtisodiyot sharoitidagi korxonaning o'zini tutishidan nimalar bilan farqlanadi?
2. Korxonada qaysi turdagi resurslardan foydalaniladi?
3. Kirishdagi resurslarning chiqishdagi resurslardan farqi nimada?
4. Korxonada sifatni boshqarishning yangi strategiyasini asosiy qoidalari qanaqa?
5. Korxonaning noqobilligini tashqi belgisi qanday aniqlanadi?
6. Korxonaning investitsiya portfeli nima?

4-Bob. MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH VA ISTE'MOL QILISH

4.1. Jamiyatning talablarini to'laroq qondirishida mahsulot ishlab chiqarishning belgilovchi roli

Ishlab chiqarish – belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan pirovard mahsulot yaratilayotgan korxonaning markaziy bo'g'inidir.

Sanoat korxonasi – ijtimoiy talablarni qondirish, foyda olish maqsadlarida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qonunlarda belgilangan tartibda tuzilgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir. U o'z faoliyatini mustaqil amalga oshiradi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lab bo'lganidan so'ng qolgan foydani tasarruf etadi. Korxonaning boshqa korxonalar, davlat, viloyat, mahalliy boshqaruv idoralari va fuqarolar bilan munosabatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Ishlab chiqarish jarayoni – bu xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar, mehnat qurollarining butlovchi qismlaridan mehnat qurollaridan iste'mol mahsulotlari, shuningdek uning qismlarini olish uchun amalga oshiriladigan alohida jarayonlarning yig'indisidir.

Ishlab chiqarish ilmiy ishlatmalarni, kashfiyotlar, ixtirolarni moddiylashtirish, moddiy va ma'naviy ne'matlarni qayta ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Mahsulot, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishning belgilovchi roli insonning butun jamiyatning talablarini ishlab chiqarishning yuqori sifatli vositalari, iste'mol predmetlari hayotni ta'minlovchi boshqa ne'matlar bilan eng to'liq ravishda qondirishdan iboratdir. Normal rivojlanayotgan ishlab chiqarish mahsulot tayyorlash sur'atlarini ko'tarib borishi, xalqning moddiy farovonligini oshirishi kerak.

Mahsulot chiqarish muammosini hal qilar ishlab chiqarish bir vaqtning o'zida ma'naviy ne'matlar, ijtimoiy sohani rivojlantirish muammolarining ham hal qiladi.

Ijtimoiy sohaga odamlarning turmushiga, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarni iste'mol qilishga, inson, oila, jamoa va butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga bevosita bog'liq va taaluqli bo'lgan iqtisodiy obyektlar va iqtisodiy faoliyat jarayonlari va turlari kiritiladi. Bular – madaniyat, tibbiyot, sa'nat, ilmiy, ta'lim muassala-

ri bo‘lib, ishlab chiqarish ular uchun moddiy texnika bazasini yarata-di.

Moddiy ne‘matlarning qayta ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanadigan jarayonning asosiy omillariga ish kuchi (mehnat), aso-siy ishlab chiqarish fondlari (asosiy kapital), moddiy resurslar, ilmiy-axborot potentsiali kiradi.

Kadrlarni tanlash- korxonaning muvaffaqiyatli ishlashining bosh muammolaridan biri. Firmaning taqdiri ularning ish sifatiga bog‘liqdir. Xodimlarni to‘g‘ri tanlash va keyinchalik ular bilan ish-lash ko‘pgina potentsial muammolarni hal qilishi va rahbar hamda jamoa o‘rtasida yaxshi munosabatlarning o‘rnatishga yordam berishi mumkin.

Korxonada kadrlar bilan har bir kuni olib boriladigan ish kadr-larga bo‘lgan talabni baholashdan, ishga qabullash, kadrlarni o‘qitish, xodimlarning ishlarini baholash, nazorat, ularni boshqarish, kadrlar siyosatini rejalashtirish, yaxshi ishlashni rag‘batlantirishdan iboratdir.

Kadrlarga bo‘lgan talabni noto‘g‘ri belgilash yoki ularni no-to‘g‘ri tanlash ularning, masalan, boshqa ishga yaxshiroq to‘g‘ri kelishlari sababli, o‘ylamay tayinlangan joylarida samarasiz ishlash-ga olib kelishi mumkin.

Xodimlarni tanlash mumkin bo‘lganliklari uchun ham ishga olish mumkin. Bu ularning qobiliyatlari, ishga munosabati, ichki intizomi, mas’uliyati, qay darajada adolatli ekanlik, sadoqati haqida ko‘proq tasavvur berishi mumkin. Kadrlarni ishga olishda va ular bilan ish-lashda qonuniy talablarga rioya qilish zarurdir.

Xodimlarning ishi sifati baholaganda:

- uning ma’lum bir davr mobaynidagi ishi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

- muvaffaqiyatlarini ko‘rsatish;
- aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha mulohazalar bildirish;
- kelajakka vazifalar belgilash;
- xodimlarga ularning ishlari sifatini baholash natijalari bo‘yicha o‘z fikrlarini aytish imkoniyatini berish;
- intizomga oid har qanday shikoyat yoki savolni muhokama qi-lish zarur.

Davlat, moliya tizimi, ijrochi xokimiyatining konkret vakillari bi-lan o‘zaro munosabatlarni huquqiy me‘yorlarga aniq rioya etish aso-

siga qurish lozim.

Tadbirkorlikda oʻzini tutish oʻz imijini yaratish va uni ishlab turishga, isteʼmolchi oldida va ishbilarmonlar doirasida obroʻ–eʼtibor qozonishga, ishonchli va haqiqiy sherik nomi darajasini oshirishga yordam berishi kerak. Lekin bunda doim tijorat surini saqlashni yoddan chiqormaslik kerak boʻladi.

Kadrlar moddiy–texnika bazasining eng muhim tarkibiy qismini tashkil etadilar. Ular ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bogʻliqdirlar, ishchilar, mutaxassislar va xizmat koʻrsatish xodimlaridan yigʻiladigan sanoat ishlab chiqarish xodimlari (SICHX) ni tashkil kiladilar. SICHX ning asosiy qismi – ishchilar.

Ilmiy–texnik taraqqiyot taʼsiri ostida ishchilar va mutaxassislarning sanoat tarmoqlari buyicha taqsimlanganida tarkibiy oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Boshqaruv tarkibining yuqori, oʻrta va quyi boʻgʻinlarining roli haqida siz “Menejment” kursidan batafsil bilib olasiz.

Ishlab chiqarishning asosiy fondlari – ishlab chiqarishning samarali yuritilishini taʼminlashda katta, muhim rolni oʻynaydi. Bular - ishlab chiqarish vositalari, uning moddiy asosi. Ishlab chiqarishning asosiy fondlarining iqtisodiy mohiyati shundaki, ular oʻz xususiyatlarini birdaniga emas, asta – sekin, bosqichma-bosqich yoʻqotib boradilar, shuning uchun oʻzlarining natural shakllarini bir qator ishlab chiqarish sikllaridan soʻng toʻliq qoplaydilar.

Ishlab chiqarish jarayonida eng muhim rolni mehnat vositalari: quvvat mashinalari va uskunalar, ish mashinalari va uskunalar, oʻlchov va tartibga solish asboblari, qurilmalar va laboratoriya uskunalari, hisoblash texnikasi, boshqa mashinalar va uskunalar oʻynaydilar. Ular mehnat predmetlariga taʼsir qilib, ularning natural – moddiy shakli va xususiyatlarini oʻzgartiradilar. Texnologik jarayonlarning belgilangan (tartibga solingan) parametrlarida toʻxtab qolishlarisiz, moʻʼtadil kechishini taʼminlaydilar, mehnat unumdorligining darajasini va mahsulotning sifatini belgilaydilar. Mashinalar, uskunalar va yuqorida sanab oʻtilgan mehnat vositalarining ishlab chiqarish jarayonidagi rolini hisobga olib, ularni asosiy ishlab chiqarish fondlarining *faol qismi* deb ataydilar.

Passiv qismga binolar, inshootlar oʻtkazuvchi uskunalar transport vositalarini kiritadilar, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida bilvosita ishtirok etadilar.

Masalan, bino va inshootlar faol ish qurollarining samarali ishlashi uchun sharoitlar yaratadilar.

Asosiy fondlarning ishini hisobga olish va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi. Ularning ichida eng muhimi fondlar samaradorligi hisoblanadi.

Fond samaradorligi (Fs) ishlab chiqarilgan mehnat (**CHM**) ning asosiy ishlab chiqarish fondlarning yillik o'rtacha qiymatiga nisbati sifatida belgilanadi.

$$(F_{o'y}): Fs = CHM / 1 F_{o'y};$$

asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismining fond samaradorligi (Faf) – chiqarilgan mahsulot (ChM)ning asosiy ishlab chiqarish fondi faol qismining solishtirma og'irligiga ko'paytirilgan asosiy ishlab chiqarish fondi faol qismining o'rtacha yillik qiymatiga ($\Phi_{o'yt}$) nisbatidir.

$$(Ca) : (Aca) = XV | 1 A_{o'qa} \cdot C_a$$

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir sutka davomida ishlagan vaqti *smenalik koeffitsiyenti* (Ksm) bilan ifodalanadi(xarakterlanadi).

$$Ksm = n_{de-sm} / n'_{de-sm}, \quad \text{bu yerda:}$$

n_{de-sm} – ishlagan dastgoh smenalar soni,

n'_{de-sm} – eng ko'p yuklangan (ish eng ko'p bo'lgan) smenada ishlagan dastgoh smenalar soni,

Ksm – ekstensiv ko'rsatkich.

Uskunaning ishlashini intensivligi intensivlik koeffitsiyenti (Kint) bilan ifodalanadi.

$$\text{bu yerda} \quad Kint = \frac{Uuu}{Ulu}$$

Uuu - uskunaning haqiqiy unumdorligi

Ulu – uskunaning loyihaviy, rejalashtirilgan unumdorligidir. Boshqa ko'rstakichlar ham ishlatiladi.

Moddiy resurslar (mehnat predmetlari) – xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va xakozolar ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etishib, o'zlarining moddiy natural shakllarini to'liq o'zgartiradilar va o'zlarining qiymatlarini to'laligicha va birdaniga tayyor mahsulotga o'tkazadilar. Mehnat predmetlarining iqtisodiy mohiyati aynan shundan iboratdir. Sanoat mahsulotlarining tannarxida aylanma fondlar 70 – 80 foizni tashkil qiladi. Ulardan foyda-

lanishni yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytiri imkoniyatini beradi.

Mahsulotning material sig'imi (**Ms**) deyilganida mahsulot chiqarish (**ChM**) uchun sarflangan hamma turdagi moddiy xarajatlar (qiymat ifodasida) summasi tushuniladi.

$$Ms = Mh / CHM$$

Bu yerda: **Mh** – moddiy xarajatlarning so'm, ming so'm va hokazolardagi yig'indisi.

Konstruksiyalash bosqichida texnik qurilma (mashinalar, uskunalar va hokazolar) ning nisbiy og'irligini yoki solishtirma metal sig'imini belgilaydilar:

$$Gom = Gam / BKFX$$

Bunda Gam – texnik qurilma detallarining kilogramli mutloq og'irligi.

BKFX – Texnik qurilmadan foydalanishning asosiy xarakteristikasining birligi, masalan traktorning quvvati – ot kuchi; avtomobilning yuk ko'tarish quvvati – tonna va hokazo.

Texnik qurilmalar, ularning qismlari, detallarini ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarish jarayonida **detalga metal ishlatish koef-fitsentni** (**Kdmi**) aniqlaydilar.

$$Kdmi = G/G' \quad \text{bunda:}$$

G' - tayyor detalning og'irligi: kilogramm, tonna;

G - detalni ishlab chiqarish uchun tayyorlangan zagotovkaning og'irligi: kilogramm, tonna.

Ishlab chiqarishga kiritiladigan kapital qo'yilmalarning asosiy manbalari korxonaning o'z mablag'lari (foydadan chegirmalar), kredit va amortizatsiya chegirmalaridir.

Ilmiy – axborot potentsiali. Axborot resurslari o'z ichiga mahsulotlarni loyhashtirishda, ishlab chiqarishni ilmiy texnologik jihatdan tayyorlash va mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan yoki foydalanishga mo'ljallangan ilmiy, texnik va iqtisodiy axborotni oladi.

Patentlarning ta'riflari, tarmoqlarning ilmiy va ilmiy – texnik jurnallari, spravchniklar, monarafiylar ilmiy – texnik axborotning manbalari bo'lishi mumkin.

Me'yoriy huquqiy axborot O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksda, O'zbekiston Respublikasining vazirlik va mahkamalarining me'yoriy hujjatlarida, bojxona hamkorligi kengashining hujjatlarida, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik va huquq kodekslarida, xalqaro kelishuvlar va konveksiyalarda, ayrim mamlakatlarning mahsulotga texnik talablar standartlari va shartlarida mavjuddir.

Ishlab chiqarish omillarini, ularning iste'mol qiymatlariga bo'lgan talablarning o'sib borayotganini hisobga olib, doimiy ravishda qayta ishlab chiqarish rivojlanayotgan iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchidir.

4.2. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilish – uning samaradorligini oshirishning bosh omillari

Ishlab chiqarishning samaradorligini oshiruvchi amallar bu texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilishdir.

Texnika (mashinalar, mexanizimlar, ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi) ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

Qisman va kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishni farq qilishga kelishib olingan.

Qisman mexanizatsiyalashtirish – mexanizatsiyalashtirishning boshlang'ich shakli bo'lib, u ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarida, ko'proq va asosiy va asosan asosiy jarayonlarda ko'p mehnatini mashinalar mexanizimlari ishi bilan almashtirish bilan ifodalanadi (xarakterlanadi). Qisman avtomatlashtirilganida ishlab chiqarishning ayrim amallari va jarayonlari avtomatik mashinalar, mexanizmlar va uskunalar bilan, shu sonning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Bu mehnat qurollari odatdagi, avtomatlashtirilmagan mashinalar orasida o'zaro harakat qiladigan tizim tashkil qilmasdan ishlaydilar. Eng samarali avtomat – dastgohlar ayrim xollarda mehnat unumdorligini 5 – 10 hatto 20 barobarga ko'taradilar.

Buning oqibatida zavodlarni qurish uchun ketadigan solishtirma kapital xarajatlar pasayadi, ishlab chiqarishning va mahsulotning rentabelligi o'sadi, chiqarilayotgan mahsulotning sifati yaxshilanadi.

Texnologiya – xom-ashyoni qayta ishlash usullari va usullari to'g'risidagi fan sifatida yirik mashinasozlik sanoatining rivojlanishi

munosabati bilan u bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi. Hozirgi vaqtga kelib, sanoat ishlab chiqarishni texnologiyasi bilimlarning mustaqil tarmog‘i darajasigacha o‘sdı, juda keng nazariy va amaliy materiallar to‘pladi. Ta‘riflovchi fandan u vatanimizdagi va ishchılardagi kashfiyotlar va ixtirolarga, ilg‘or tajribaga asoslangan aniq fanga aylandi.

Texnologiya ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga og‘ir va zerikarli darajada bir xil mehnatni qisqartirishga ta‘sir qiladi.

Ishlab chiqarish bilan mana shunday yaqin aloqasi natijasida texnologiya jonli va moddiylashgan mehnat xarajatlariga keskin ta‘sir qila boshladi.

Texnologik jarayon deb berilgan texnik talablarga muvofiq mahsulot olshi maqsadlarida material yoki yarim fabrikatlarning shakli, o‘lchamlari, xususiyatlarini izchillik bilan texnologik fan korxona va ilmiy – texnik taraqqiyotni boshqarish kabi fanlar bilan chanbarchas bog‘langan.

Texnologiyaning iqtisodiyot bilan aloqasi, masalan, odamlarning ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlari orqali nomoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish kuchlarining turli xil ya‘ni o‘z – o‘zidan mehnat jarayonlarning hamma holatlarining o‘zaro harakatini qamrab oluvchi munosabatlar texnologik munosabatlar deb ataladi ular o‘zaro harakatlarning «inson – fan – texnika – ishlab chiqarish – iqtisodiyot» tizimiga shakillanadi.

Fan va texnika nazaridan insonning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini eng to‘la qondirishga yordam beruvchi texnologik jarayonlarga optimaldir.

Har qanday ishlab chiqarish texnologiyasining darajasi uning iqtisodiy ko‘rsatkichlari (foyda, mahsulotning belgi, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqalar) ga xal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun iqtisodchiga hozirgi zamon texnologik jarayonlari bo‘yicha yetarli darajada bilimlar, muhandisga esa iqtisodiyot sohasidagi bilimlar zarur bo‘ladi. Tadbirlar esa bilimlarning unisi va bunisini ham bilishi kerak.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish – bu mehnat vositalarini, mehnat predmetlarini va mehnatning o‘zini ishlab chiqarish jarayonlarini va butunlay tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritish maqsadida zamon va makonda maqsadga eng muvofiq tarzda birlashtirish va foydalanishni ta‘minlovchi usularning yig‘indisidir.

Tadbirkor eng avvalo ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan ishda muvoffaqiyat qozonishni rejalashtiradi. Bu texnologiyalar tadbirkor ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lmagan ilmiy – texnik faoliyat natijasidir. Texnika, texnologiya, tabiiy sharoitlar, tashqi holatlardan tashqari ishlab chiqarish jarayoniga unga jalb etilgan xodimlarning faoliyatining o'zi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu omil tadbirkorlarga yaqin va u xodimlarga ta'sir ko'rsatish orqali ishlab chiqarish jarayoni natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadbirkor xodimlar faoliyatini tashkil qilishni quydagi talablar va tamoyillarga bo'ysindiradi:

1. Ishlarning to'siqsizligi shundaki, tashqi o'zgarishlar bo'lishi ehtimoli bo'lgan sharoitlarda bitta ijrochini faoliyatining natijalari uning o'ziga halaqit beruvchi o'z to'sig'i emas. To'siqsizlikka rioya qilish ishlab chiqarishning kamchiliklarini, uning jarayonlaridagi kelishmovchiliklarini bartaraf etish ishlab chiqarishning uzluksizligi tamoyiliga amal qilishga imkon yaratadi, u uskunalarining ortiqcha zaxiralari to'planishi, boshqa xodimlarni kutishni chiqarmasligi kerak.

2. Ishlab chiqarish resurslari va bajariladigan ishlarning muvofiqlashtirganligi. Ishlab chiqarish resurslarini muvofiqlashtirib foydalanish uskunalarini ishlab chiqarish binolarini optimal yuklash ishchilarni oqilona (ratsional) band etishni o'z ichiga oladi. Bu tamoyilni ishlatishdan samara shundaki, xodim tadbirkorlik sohasida shuningdek tadbirkor ham bo'ladi, lekin u kapitalga suyanmaydi.

3. Ishlar sifatining kafolatlanganligi o'z ichiga ishlab chiqarish vazifasini topshiriqlarga ijrochiga aniq qo'yish, materiallar asboblari va nazorat vositalari bilan ta'minlashga sinchiklab, batafsil bo'lib chiqishni o'z ichiga oladi.

4. Ishlarning o'z muddatlarida bajarilishining kafolatlanganligi amallarni bajarish vaqtini me'yorlash, mahsulot jo'natish muddatlarini, asboblari, buyurtmalarni bajarish, xizmatlarni taqdim etish muddatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi.

5. Xodimning hamkorlik qilishga tayyorligi mehnat sharoitlari, shu jumladan muhofaza qilish sharoitlarini ham takomillashtirilishiga asoslanadi. Tashkilotchiga bog'liq bo'lgan tarbiyaviy samara ijobiy ham, salbiy ham (xizmatdoshlarini, rahbariyatni hurmat qilmaslik – uchastkadagi tarang munosabatlar majburiyatlarning noaniq taqsimlanishi) mumkin.

Ishlab chiqarishning xarakteri va tuzulmasi chiqarilayotgan mahsulotning o'ziga xosliklaridan, ishlab chiqarishning qo'llanilayotgan mehnat vositalaridek. Mehnat predmetlari va texnologik jarayonlariga bog'liqdir to'g'ri tashkil qilingan ishlab chiqarish ixtisoslashtirish, proporsionallik, paralellik, uzluksizlik, To'g'ri oqimlilik va ritimlilik kabi asosiy tamoyillariga amal qilib quriladi.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi – bu konstruktiv va texnik jihatdan o'xshash mahsulotlarini chiqarishni jamlashdir. Konstruktiv va texnologik o'xshashlik keng miqyosda unifikatsiyalashtirish yo'li bilan yaratiladi. Eng umumiy ko'rinishda unifikatsiya - ko'p xillikni unifikatsiyalashtirilayotgan obyektini ayirish tomonidan yaxshilash bilan oqilona bir xillikka keltirishdir.

- Proporsionallik – bu ishlab chiqarishning hamma bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlarini qo'shishdir. U mahsulotni kerakli miqdorda, nomenklatura (ro'yhat) da, assortimentda va butlikda, tadbirkor belgilangan muddatlarda chiqarish imkonini beradi.

- Parallellik – ishlab chiqarish jarayonining amallari va bosqichlarini bir vaqtda bajarishdir. Bu tamoyil pirovard mahsulot tayyorlash bo'yicha keng ish fraktini yaratish imkonini beradi.

- Uzluksizlik – ishlab chiqarishni shunday tashkil qilishni, bunda bir amal boshqasidan so'ng bir smenda, smenalar o'rtasida, amal ichida va amallar orasidagi tanaffuslarsiz keladi.

To'g'ri oqimlilik – mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida harakatlanishini oqilona tashkil qilish bo'lib, u mahsulotning tayyorlashning bir bosqichdan (amaldan) navbatdasisiga eng qisqa yo'l bilan harakatlanishini ta'minlaydi.

- Ritimlilik – mahsulotlarni vaqtning teng buloqlari ichida bir xil yoki takrorlanuvchi mahsulotlarni o'sib boruvchi miqdorda chiqarishdir.

Xulosa. Yuqorida aytib o'tilgan tamoyillarga rioya qilishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni ratsional (oqilona tashkil qilingan) hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni takomillashtirish uning ixtisoslashtirilishi (ishlab chiqarishning har bir uchastkasida bajariladigan turli xildagi ishlarning hajmini borgan sari cheklashni qattiq mustahkamlash) konsentratsiyalashni davom ettirish (ishlab chiqarishni optimal mi-

qyoslarga yetkazish), ishlab chiqarish jarayonlarini va ularni boshqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish yoʻnalishida amalga oshirilishi kerak.

Ishlab chiqarishni tashkil qilishning zamonaviy usullariga ommaviy isteʼmol mahsulotlarini oqim usulida ishlab chiqarish kiradi.

Oqim usulida tashkil qilishning oliy shakli avtomatik oqim liniyalari hisoblanadi. Ular asosan ikki tizimli boʻladi: uzulib harakat qiladigan maxsus avtomat – dastgohlardan va uzulmay ishlovchi matyorli dastgoxlardan tashkil topadi. Yordamchi amallarni bajarish uchun maxsus tizim sifatida dasturiy boshqaruvli dastgohlar – robot texnikasi qurilmalari qoʻllanishi mumkin.

Ishlab chiqarishni oqim usulida tashkil qilishning samaradorligi shundaki, u praporsionallik, ritimlilik, va uzluksizlikni toʻlaroq qoʻllash, uskunalarining Toʻxtab turishlari va yordamchi amallarning oʻsishini keskin qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonining davomligini qisqartirish, mahsulot sifatini koʻtarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligining asosiy koʻrsatkichlari.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi eng umumiy maʼnoda natijalilikni, yaʼni ishlab chiqarish jarayonida erishilgan natijalar bilan jonli va moddiylashgan mehnatning orasidagi nisbatni bildiradi.

Iqtisodiyotning murakkab xarakteri, aloqalarning koʻp shakildaligi iqtisodiy samarani oʻlchaganda koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Iqtisodiy samarani ifodalash uchun ijtimoiy mahsulotning yigʻindisining hajmi, milliy daromad, foyda, sotilgan, tovar mahsulotning tannarxi, transport xarajatlari hajmi, mehnat va moddiy xarajatlar va boshqa koʻrsatkichlar ishlatilishi mumkin.

Bunda ijtimoiy mehnatni iqtisod qilish, uning unumdorligining oʻsishi ishlab chiqarish samaradorligini baholash mezon (asosiy oʻlchovi, bosh belgisi) sifatida chiqadi.

Mehnat unumdorligining oshishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oʻsish ulushi (Q_{uy}) quyidagi formula boʻyicha aniqlanadi.

$$Q_{uy} = (1 - CH/V) 100$$

Bu yerda, **CH** – ishlovchilar sonining oʻsish surʼati;

V – mahsulot ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda joriy va bir martalik xarajatlarni farqlaydilar. Ularning birinchilari mahsulotni tayyorlashga qarab doimiy tarzda amalga oshiriladi va ishlab chiqarish xarajatlarini (mahsulot tannarxini) ifodalaydi. Bir martalik xarajatlar – bu jamiyat asosiy fondlarni tuzish va oborot fondlarini o‘stirish uchun kapital qo‘yilmalar shaklida avans qilib bergan mablag‘lardir.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy samaradorligi ko‘rsatkichlariga mehnat sig‘imi (**Ms**), fond sig‘imi (**Fs**), kapital sig‘imi (**Ks**) kiritish kerak.

Mehnat sig‘imi mahsulot birligiga qilingan jonli mehnat sarfning hajmini bildiradi va mehnat xarajatlari (**Mh**) hajmining ishlab chiqarilgan mahsulotning (**CHM**) umumiy hajmiga nisbati sifatida belgilanadi.

$$\mathbf{Ms} = \mathbf{Mh/CHM}$$

Bu kattaliklarning (hajmlarning) teskari nisbati mehnat unumdorligi (**Um**) ko‘rsatkichni beradi.

$$\mathbf{Um} = \mathbf{CHM/Mh}$$

Fond sig‘imi (**Fs**) qo‘llaniladigan ishlab chiqarish (asosiy va aylanma) fondlarning mahsulot birligiga hisoblagandagi (hajmi) ni ochib beradi va ishlab chiqarish fondlarining yillik o‘rtacha qiymati (**Fk**) – ning ishlab chiqarilgan mahsulot (**Chm**) ning umumiy hajmiga nisbati kabi belgilanadi.

$$\mathbf{Fs} = \mathbf{Chm/Fk}$$

Bu kattaliklarning teskari nisbati endi fond sig‘imi (**Fq**) ko‘rsatkichni beradi.

$$\mathbf{Fq} = \mathbf{Fk/ Chm}$$

Korxonaning foydasi – ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatining sifatini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichdir.

Foydaning hajmi asosan mehnat unumdorligining o‘zgarishiga, ishlab chiqarishning moddiy sig‘imiga, mahsulot sifati, asosiy fondlarni ishlatish samaradorligiga bog‘liqdir.

Mahsulotining sifati – o‘zining mo‘ljallanganiga muvofiq belgilangan ma’lum talablarni qondirishga yaroqliligini taqozo etuvchi

xususiyatlar yig'indisidir. Mahsulotning sifati ko'rsatkichi – bu mahsulotning sifatini tashkil qiluvchi, mahsulotning bir yoki bir nechta xususiyatlarining uni yaratish, undan foydalanish yoki mahsulotni iste'mol qilishning ma'lum sharoitlariga qo'llagan holda ko'rib chiqiladigan miqdor harakteristekasidir. Sifat ko'rsatkichlarining ro'yhati mahsulot nimaga mo'ljallanganiga bog'liq bo'ladi. Masalan mashinasozlikda mahsulotning sifatini baholash uchun yakka, kompleks va integral ko'rsatkichlardan tashkil topgan tizimdan foydalaniladi.

Yakka ko'rsatkichlar mahsulotning xususiyatlaridan bittasini xarakterlaydi; keng miqyosda foydalaniladi. Bu guruh ko'rsatkichlariga texnik samara, texnologiklik, unifikatsiya, mo'ljal ko'rsatkichlari, shuningdek, ergonomik, estetik, patent – huquq va iqtisodiy ko'rsatkichlari ham kiritiladi.

Kompleks ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida mahsulotning bir nechta xususiyatini ifodalaydi. Bular: mashinaning tayyorlik koef-fitsiyenti, tannarx, (bir soatlik ishga hisoblaganda), texnika vositasi-niing xizmat muddati kabilardir. Mahsulotning ikki xususiyati buzulmaslik (bezotkaznost) va ta'mirga yaroqlilikni ifodalovchi mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichi (Kch) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Kch = T/(T + Tv).$$

Bunda T – mahsulotning mashinaning buzulishi, ishlamay qol-ishini oldini olish uchun qilinadigan ishlar (ishlamay qolmaslikni yo'qqa chiqarish ko'rsatkichi);

$Tv = To + Tu$ (To – ishlamay qolish sababini topishga sarflanadigan vaqt, Tu – ishlamay qolish sababini bartaraf etishga zarur bo'lgan o'rtacha vaqt).

Tayyorlik koefitsiyenti mahsulot (uskuna, quriladi, mashina) vaqtning erkin tanlangan paytida rejali texnik xizmat ko'rsatishni bajarish o'rtasidagi oraliqlarda ishlash ehtimolini aniqladi.

Kompleks ko'rsatkich integral ko'rsatkichdir. U texnik qurilman-ing samaradodligini yoki tejamkorligini ifodalaydi va mahsulotni ishlatishdan olingan summa foydali samaraning (E) uni yaratishga (Zs) va ishlatishga ketgan summa xarajatlar (Ze) ga nisbati bilan hisob – kitob qilib chiqariladi; quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I = E / Z_e + Z_e$$

Bu formulani xizmat muddati bir yildan oshiq bo'lmagan mahsulot uchun qo'llash mumkin. Aks xolda Z_s kapital qo'yimalarning samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti Yen yordamida mahsulot xizmat muddatining so'nggi yiliga keltirilishi lozim. Unga teskari bo'lgan o'z ko'rsatkichi samara birligiga ketgan solishtirma xarajatlarni ifodalaydi:

$$U_z = (Z_s + Z_e) / E$$

Korxonada, tarmoqda sifatni ko'tarish bozorning yoki buyurtmasining bu masaladagi talablari yuzaga kelishiga qarab amalga oshiriladi. Sifatni oshirishni rejalashtirishning predmeti ko'rsatkichlardir, rejalashtirish obyekti esa – konkret mahsuloti.

4.3. Mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol qilishning aloqasi

Ishlab chiqarish va iste'mol – odamlar hayoti va faoliyatining ajralmas qismidir. Ishlab chiqarish va iste'mol o'zaro bog'liqdir. Ishlab chiqarilganidan (import bo'yicha olinganini hisobga olmaganda) ortiq mahsulotni iste'mol qilib bo'l-maydi. Ya'ni agarda 400 dona non yopgan bo'lsangiz 401 ta non yeya olmaysiz. Shuning uchun bunday xulosa qilish mumkinki, ishlab chiqarish ma'lum ma'noda mahsulot, tovarlar, ne'matlar va xizmatlarning iste'molini tartibga soluvchidir.

Iqtisodiy adabiyotlarda iste'molning uch darajasi: shaxsiy va oilaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy darajalari ko'rib chiqiladi.

Shaxsiy va oilaviy iste'mol – bu shaxsiy va oilaviy ehtiyoj, talablarni qondirish uchun mahsulotlarni iste'mol qilish, kiyim kechak buyumlari, shaxsiy transport, maishiy xizmatlar, ma'naviy boyliklardan foydalanishdir.

Ishlab chiqarish iste'moli – bu asosiy, aylanma fondlarini, axborot, bilimlar, binolar, inshootlarni iste'mol qilish, ulardan foydalanish demakdir.

Ijtimoiy iste'mol ma'naviy va moddiy boyliklardan xalq xo'jaligi, jamiyat va har bir kishining jamiyat a'zosi sifatidagi talablarini qondirish maqsadida foydalanish (ta'lim, madaniyat, san'at, sport va boshqalar)dan iboratdir.

Pirovard va oraliq iste'mollarini bir biridan ajratadilar. Pirovard iste'mol – bu ishlab chiqarilishi y a k u n l a n g a n mehnat qurollari

va mehnat predmetlari, shuningdek iste'mol mahsulotlaridir. O r a l i q (joriy) iste'mol – ishlab chiqarish vaqtida, xali mahsulot ishlov berishda bo'lgan vaqtdagi (tugallanmagan ishlab chiqarish) iste'moldir.

Joriy iste'molga korxonaning joriy (mahsulot ishlab chiqarish barobarida) ehtiyojlariga mablag' sarflashi; ishlab chiqarish obyekti o'zgarganida yangiliklarni joriy qilishga, texnik qayta qurollanishga, rekonstruksiya qilishga pul mablag'larini jamg'arish bo'la oladi. Ratsional (oqilona) iste'mol ko'rishga olimlar, texnologlar, iqtisodchilar, sotsiologlar tomonidan aholining yosh guruhlarini, yashash joylarini hisobga olib belgilangan normativlar, me'yorlar bilan tartibga solinadi va tavsiya xarakteriga ega bo'ladi. Ish bilan bir vaqtda odam o'zi uchun mahsulotlar iste'mol qilish me'yori o'zi belgilashi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasida murakkab o'zaro aloqalar vujudga keladi. Ishlab chiqaruvchi, masalan, mahsulot tanqisligini yuzaga keltirishi mumkin (nimani taklif qilishsa shuni ol), o'z navbatida iste'molchi agar birinchi ishlab chiqaruvchi mahsulotga yuqori narx quyib, uning sifatini pasaytirs, boshqa ishlab chiqaruvchiga o'tib ketishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti bozorning umumiy kon'yukturasining mo'tadil emasligi sharoitlarida boshqaruv strategiyasi ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatini mo'tadil turishga da'vat etilgandir. Korxona daromadining qat'iyligi va uning muvaffaqiyati strategik qarorlarning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Biroq, daromadlarning mo'tadil o'sishiga marketing tadqiqotlarisiz erishib bo'lmaydi.

Xulosalar

1. Sanoat ishlab chiqarishi ilmiy ishlanmalarni moddiylashtiradi, moddiy va ma'naviy ne'matlarni qayta ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Uning vazifasi – insonning va butun jamiyatning talablarini yuqori sifatli mehnat qurollari, predmetlari va iste'mol buyumlari bilan ega to'la ravishda qondirishdir.

2. Ishlab chiqarishning samarali faoliyati yuritishi ishlab chiqarishning texnik darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishni va mehnatni oqilona tashkil qilish, kadrlarni tanlash, joy – joyiga qo'yish va malakasini oshirish, yuksak ishlab chiqarish intizomi, xodimlarning mehnat va ijro intizomining yuqori bo'lishi bilan

ta'minlanadi.

3. Ish bo'yicha sheriklar va komponentlarni tanlash juda muhim. Ularning shaxsiy, potensial va jamoaviy xislatlarini yetarlicha baholamaslik tadbirkorlikda ishning halokatga, obro'ning yo'qotilishiga yoki jinoiy kodeks bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin.

4. Ishlab chiqarishning samarali ishlashda axborot resurslari katta ahamiyatga ega. Ilmiy, texnik, iqtisodiy, axborotning va bashoratning ma'lumotlarini o'z vaqtida ishlatish ishlab chiqarishda tayyorlanayotgan mahsulotlarning texnologik konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularni sertifikatlash va vatanimiz hamda xalqaro bozorlarda sotishga yordam beradi.

5. Ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishda mahsulotga ishlov berishning mehnat sig'imini, mahsulotning tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini va chiqarilayotgan mahsulotning sifatini ko'tarishga imkon beruvchi eng yangi texnologiyalarni qo'llashga aloxida rol ajratiladi.

6. Ishlab chiqarish mahsulot iste'mol qilishni ma'lum darajada tartibga soluvchidir. Ishlab chiqarilganidan ortiq (import bo'yicha keltirilganini hisobga olmaganda) tovar, mahsulot, ne'matlarni iste'mol qilib bo'lmaydi, yaratilmagan xizmatlarni ham ko'rsatishning imkoni yo'q. Ishlab chiqarish va iste'mol odamlar hayoti va faoliyatining ajralmas qismidir.

7. Marketing ishlab chiqarish va iste'molning imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, kelishtirish jarayoni shaklida chiqadi.

8. Reklama ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqaruvchi va potensial iste'molchi o'rtasida aloqa o'rnatadi.

9. Mahsulotni sinovlar jarayonida sertifikatlash mahsuloti ega bo'lgan amaldagi xislatlari (xarakteristikasi)ni aniqlaydi va uning sertifikatsiyalangan talablarga muvofiqligini hujjatlashtirib tasdiqlaydi. Sertifikatlangan mahsulot yuqoriroq iste'mol xususiyatlariga ega, raqobatga bardoshli hamda odamlar va jamiyatning talablarini to'laroq qondiradi.

O'zingizni tekshiring

1. Kadrlar ish bo'yicha komponentlar, sheriklar uning samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadilar?

2. Tadbirkorlik faoliyatida asosiy ishlab chiqarish fondlari qanday rol o'ynadilar?

3. Ishlab chiqarish samaradorlikini oshirishda texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi roli qanaqa?

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mehnat predmetlarining roli qanday?

Moddiy resurslarni hisobga olish va ulardan foydalanishni tahlil qilish uning ko'rsatkichlar tizimi.

5. Ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida qanday aloqa bor?

7. Xaridorlarni jalb etish va mahsulotlarni sotish nimalar bilan amalga oshiriladi?

8. Reklama qanday talablarga javob berishi kerak? U nimaga xizmat qiladi?

9. Sertifikatlashning ishlab chiqarish samaradorligini mahsulotning raqobatga bardoshlilikini oshirishda, inson va jamiyatning talablarini eng to'la qondirishdagi roli qanday?

5 – Bob. SANOATNI RIVOJLANTIRISH

5.1. O‘zbekistonda tadbirkorlik tarixidan

O‘zbekistonda tadbirkorlik ko‘p asrlik tarixga ega. Lekin bozor shaklidagi tadbirkorlik, sanoat, savdo va moliya firmalarini tashkil qilish XIX asrning oxirida faollashda, o‘shanda ularning soni keskin oshdi. Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ulon, Urganch va boshqa shaharlar paxta firmalari, turli tijorat banklarining birikmalari ochilgan paxta savdosi markazlariga aylandilar. Arxiv tadqiqotlarini olib boruvchi tarixchilarning guvohlik berishlaricha, mahalliy tadbirkorlarga qarashli bo‘lgan ishlab chiqarish – sanoat korxonalaridan birinchisi 1869 yili yuzaga keldi. O‘shanda Gorchakovo bekatida (Marg‘ulon yaqinida) 6 ta jip mashinasi va bug‘ dvigateli bo‘lgan paxta zavodi ochildi.

Ishlab chiqarish – sanoat sohasiga sarmoyasini qo‘ygan O‘zbekistonlik yirik tadbirkorlar doirasi dastlab xo‘jalik faoliyatining savdo – tijorat yo‘nalishi bazasida shakllandi. O‘tgan asrning 90 – yillaridayoq qadimiy savdogorlik sulolalari o‘z sarmoyalarini paxta xarid qilish va uni birlamchi qayta ishlashga investitsiya qila boshladilar, ya‘ni O‘zbekistonning real xo‘jalik amaliyotida tadbirkorlikning moliyaviy, tijorat va ishlab chiqarish sohalarining integrallashni (birlashishi) jarayoni boshlandi.

Serxosil Farg‘ona vodiysida paxta yetishtirish va eksport qilishning tez o‘ssishi munosabati bilan Qo‘qon, Andijon, Asaka, Marg‘ulon shaharlarida savdo – xarid va sotish firmalari, idoralari paydo bo‘ldi. Ular paxtani sotib olish – eksport qilish amallariga ixtisoslashgan edilar.

Paxta ishlab chiqarish va paxta tozalash, ular orqali esa Turkiston sanoati va savdosining boshqa tarmoqlari ham Fors mamlakati va O‘rta Osiyo bilan savdo uchun Moskva savdo – sanoat o‘rtoqligi.”Aka – uka Shlosberglar o‘rtoqligi” yoki “Emil Sindil” hissadorlik jamiyati kabi yirik savdo-sanoat kompaniyalariga qapamlikda edilar, bu mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishni qiyinlashtirar vatan iqtisodiyotiga bir yoqlama, agrar xom-ashyoviy mazmun kasb etardi.

Sanab o‘tilgan firmalar Turkistonda o‘z paxta tozalash zavodlariga ega edilar 1912 yili butun Markaziy osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan 256 zavodning 96 tasi chet firmalarga tegishli edi.

Boshqalariga xuddi shu xorijiy firmalarga tozalangan paxtaning mutloq ko'pchiligini sotuvchi mahalliy tadbirkorlar egalik qilishardi.

Paxta bilan o'tkaziladigan tijorat, xarid – savdo amallari katta daromad keltirgani uchun O'zbekistonda asrning 30 – yillarining oxirida moliya–bank faoliyatining faollashishining sharti va sababi bo'ldi. O'shanda markaziy osiyo mintaqasiga Rossiya va chet el banklari o'zlarining investitsiya qiziqishlarini qaratdilar 1889 yili Turkistonda davlat bankining bitta bo'linmasi ishlab turardi. 1891 yili xususiy tijorat banklaridan to'rttasining yana beshta bo'linmasi raqobatchilik qila boshladi. 1912 yili Markaziy Osiyo mintaqasida mahalliy ishbilarmon doiralarga endi davlat bankining 40 ta vakolatxonasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatar edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston xududida bankt kapitalining kredit – investitsiya faolligining kuchayishi o'zining ijobiy natijalarini tezda ko'rsatadi. Masalan, Qo'qon nizomiy kapitali 130 ming rubl bo'lgan Rishton neft zavodi o'rtoqligi vujudga keldi, 1906 yili kapital ikki millmon rublga baholangan Chimyon Farg'ona neft va tog' sanoati o'rtoqligiga asos solindi. 1917 yilga kelib Turkiston o'lkasida tez–tez bir million rublgacha yillik aylanmaga ega bo'layotgan mahalliy tadbirkorlardan endi yuzlab nafari bor edi.

Shunday qilib, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishda ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan kichik va o'rta biznesni, aholining tadbirkorligi faolligini rivojlantirish bizning mamlakatimizda bo'sh joydan paydo bo'lgani yo'q. O'zbek xalqining tadbirkorlik tashabbusi ildizlari tarixiy o'tmishga qaraladi. Jumladan XIX– XX asrlar chegarasidayoq O'zbekiston xududida ma'lum bir tomonlar bilan hozirgi kun voqyeli bilan o'xshashlikka ega bo'lgan biznesning turli sohalarining tadbirkorlik tuzulmalari faol shakllana va faoliyat yurita boshladi.

5.2. Sanoat korxonasining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va roli

Davlat mustaqilligi e'lon qilingandan beri o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda katta yutuqlarga erishiladi.

Milliy iqtisodiyot – bu ushbu mamlakatning ma'lum xududiy chegaralarida tarixan shakllangan, yagona tizimga birlashtirilgan

iqtisodiy tarmoqlarining yig'indisidir.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish Prezidentimiz I.A.Karimov ilgari surgan besh asosiy tamoyilga asoslanadi. Ular bozor munosabatlariga o'tishning milliy modelini shakllantirishning butun dasturi negiziga qurigan.

Mustaqillik shakllangan qisqa davr ichida respublikada bozor munosabatlariga o'tishning qonuniy – huquqiy asoslari yaratiladi. Zarur bo'lgan hamma xo'jalik – huquqiy me'yorlar, subyektlarning iqtisodiy erkinligini, xususiylik va tadbirkorlikni himoya qilishni kafolatlovchi bir qator qonunchilik xarajatlar va hujjatlar paketi qabul qilinadi va ular amalga oshirilmoqda.

Sanoat korxonasi milliy iqtisodiyotning muhim subyekti, moddiy subyektlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston sanoat majmuasining boshlang'ich xalqasidir.

Ishlab chiqarish – bu odamlar hayot faoliyatidagi obyektiv zarurat, kishilik jamiyati mavjud bo'lishning asosidir. Faoliyatning istalgan turi bilan shug'ullanishni boshlashdan avval odam o'z xayotining moddiy sharoitlarini yaratish: oziq-ovqat, kiyim, turar joy topishi kerak.

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadi – inson talablarini qondirish.

Talablar esa chegarani bilmaydi. Bu ishlab chiqarishni doimiy rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Qandaydir tovarni ishlab chiqarish jarayoni yakka tartibda – korxonada amalga oshiriladi. Boshqa tomondan esa iqtisodiyot – bu bir-biri bilan o'zaro bog'langan turli xildagi korxonalar va ularga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning murakkab yig'indisidir. Shunday tarzda ishlab chiqarish doimo ijtimoiy shaklda namoyon bo'ladi. Shunchaki tashkil qilingan ishlab chiqarish yo'q. U hamma vaqt turli xil iqtisodiy subyektlarning o'zaro munosabatlari bilan taqdim etiladi, chunki ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, mehnat) ning o'z egalari, mulkdorlari bor.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotida yetakchi uchta xo'jalik yurituvchi harakat qiladi. Bular:

1. Uy xo'jaliklari.
2. Korxonalar (mulk egalari turlicha).
3. Davlat.

O'z mulkida ijtimoiy kapitalning katta qismini mujassam qilgan asosiy xo'jalik yurituvchi subyektlar ularning birlashmalaridir.

Korxonalar mamlakatning xalq xo'jaligi majmuasini tashkil qilish va rivojlantirishda rol o'ynaydilar.

Ular moddiy ishlab chiqarishning tegishli tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqalar) ni tashkil qiladilar. Korxonalar tarmoqning tuzilmasini tashkil qiladilar, uning yo'nalishi (profili) va miqiyoslarini belgilaydilar. Ulardan o'lkalar, viloyatlar, shaharlarni tuzuvchi tarmoq va xududiy majmualar shakllantiriladi. Korxonalar o'z-o'zlari joylashgan shaharlar, qo'rg'onlar, viloyatlar va o'lkalarning o'lchamlari va xududiy ixtisoslashishlarini shakllantiradilar.

Hamma davlat hujjatlarida korxonalar xalq xo'jaligi majmuasining bosh unsurlari yoki asosiy bo'g'inlari sifatida ko'rib chiqiladi. Har qanday xo'jalik va texnik qaror faqat korxonada, zavod mutaxasisi, xizmatchisi, ishchisining ish joyida real shaklini oladi.

Respublikada amalda sanoatning og'ir sanoatdan yengil sanoatgacha va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlovchi, ilmiy sig'imli ishlab chiqarishlargacha bo'lgan hamma tarmoqlarini namoyon qiluvchi kuchli, bir qator hollarda esa nodir korxonalar tuzilgan va ular ishlab turibdi.

Ko'plab avlodlarning mehnati bilan yaratilgan ishlab chiqarish potentsiali mamlakatning bundan keyingi iqtisodiy o'sishi uchun ishonchli asosdir.

5.3. O'zbekistonning eng yirik sanoat korxonalari: faoliyat ko'lami va samaradorlik.

O'zbekistonda vaqti-vaqti bilan banklarning reytingi chop etib turiladi, ammo hozirgacha yirik sanoat korxonalarning reytingi yo'q edi. Xolbuki, bunday reyting mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari, ishlab chiqarishdagi tendensiyalar, bandlik, kapital qo'yilmalar, eksport va hokazolar haqida ko'p narsalarni aytib berishi mumkin. Bunday axborot korxonalarning potentsial investorlari, resurslarni yetkazib beruvchilari va mahsulotlarning xaridorlari uchun juda muhim. Shuning uchun bunday reyting yaratishga urinishning dolzarbligiga shubha yo'q.

Boshlang'ich materiallar va metrologiya

Tan olish kerakki, reyting tuzish va eng qiyini boshlang'ich axborotni olish bo'lib chiqdi. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda ochiq

hissadorlik jamiyatlarni OHJ bo'lgan yirik korxonalarning ko'pchiligi o'z moliyaviy xo'jalik faoliyatlarining asosiy ko'rsatkichlarini ommaviy hisobot shaklida matbuotda e'lon qilib turishga majburdirlar.

O'zbekistonning eng yirik sanoat korxonalarining ro'yhati makroiqtisodiyot va statistika vazirligining statistika Departamenti tomonidan taqdim etildi. Ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida ular 2000 yili ishlab chiqargan mahsulot (bajargan ishlar, ko'rsatgan mahsulotlar) hajmi olindi.

Korxona faoliyatining miqyoslarini aniqlash uchun turli xil indikatorlardan foydalanish mumkin. Shuning uchun yakuniy ko'rsatkich xususiy ko'rsatkichlarning oddiygina summasidan iborat emas, balki bu ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik, xususiy ko'rsatkichlarning ahamiyatini hisobga olgan holda, har tomonlama mulohaza qilib chiqarilgan summasidir. quyidagi og'irlik koefitsiyentlari joylangan:

- ishlab chiqarish hajmi 15 %
- soliqlarga to'lashgacha foydaning miqdori 15 %
- hamma moliyalanish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar 12 %
- sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni 10 %
- asosiy fondlar qiymati 10 %
- mehnatga haq to'lash fondi 10 %
- aktivlarning umumiy qiymati 8 %
- o'z kapitalining miqdori 7 %
- uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar 5 %

Yakuniy reyting o'rni	Korxonalar-ning nomi	Reytingdagi o'rni					Soliqlar to'laguncha bo'lgan foyda
		Ishlab chiqaish bo'yicha	Bandlik miqdori bo'yicha	Asosiy fondlar qiymati	Aktivlar qiymati	Kapital miqdori	
1.	"Olmalik TMK" OTHJ	1	1	8	6	6	1
2.	"Muborak neftgaz"	4	21	2	3	2	4
3.	Buxoroteks HJ	5	2	12	13	8	6
4.	Buxoro neftni qayta ish-lash zavodi	2	24	4	2	1	3
5.	Zarafshon	6	42	3	6	3	2

	kyumont HJ						
6.	O'zmetkombinat HJ	8	3	13	12	10	35
7.	"Shurtan neftegaz"	9	18	5	7	5	5
8.	"O'zDaewoo"HJ	3	10	1	1	4	81
9.	Toshto'qima-chi OHJ	7	4	24	20	13	7
10.	"Quva- soysement"HJ	38	11	14	17	12	8
11.	"Kvars"HJ	24	15	21	29	21	10
12.	"Qizilqum- sement" HJ	12	16	22	24	16	24
13.	"Elektr-kimyo sano-at" IB	17	5	7	8	7	71
14.	"Bobur"HJ	14	6	28	37	35	13
15.	Andijon mahsulot	16	32	15	15	18	37

Ishlab chiqarish

Eng yirik 10 ta sanoat korxonasi qatoriga kirgan ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi bo'lganlar yiliga kamida 40,8 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqaradilar.

Kapital mablag'lar (qo'yilmalar)

Investitsiya faoliyati har qanday korxona ishining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u korxonaning bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat tomonidan ajratiladigan kapital quyilmalar investitsiyalarning juda oz qismini tashkil qiladi. Eng yirik investorlar orasida neft va gaz, metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlari korxonalari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Aktivlar

Investitsiyalarning natijasi korxonalarning mulki, eng avvalo Asosiy fondlarning o'sishi bo'ladi. Asosiy fondlarning qiymati band bo'lganlar soni va ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda korxonaning an'anaviy foydalaniladigan ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

6-Bob. ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TURLARI, ULARNING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI

6.1. Ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari va uning turlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun eng qulay imkoniyatlar uni tashkil qilishning ixtisoslashtirish, kooperatsiyalashtirish, konsentratsiyalash va ishlab chiqarishni kombinsatsiyalash shakllaridan foydalanganida yaratiladi.

Ixtisoslashtirish – turdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni alohida tarmoqlarda, bir xil turdagi birlashmalar yokitsexdagi turdagi mahsulotlarning cheklangan sonli turlarini ishlab chiqarishni mujasamlashtiradi. Korxonalarining ixtisoslashtirishi moddiy va mehnat resurslaridan yaxshiroq foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi, mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Kooperatsiyalashtirish – bu bitta murakkab mahsulotni birgalikda ishlab chiqaruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalar oʻrtasida doimiy ishlab chiqarish aloqalarini oʻrnatishdir.

Ixtisoslashish qanchalik tor boʻlsa, bu korxonaning boshqa korxonalar bilan aloqalari yaʼni kooperatsiyalashini shunchalik keng boʻladi. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash rivojlantirish mahsulot joʻnatuvchi korxonadan xoʻjalik shartnomalarining hamma shartlariga qatʼiy rioya qilishni talab etadi. Kooperatsiyalashtirish boʻyicha oqilona aloqalarni oʻrnatish katta iqtisodiy samaraga ega. Iqtisodiy jihatdan olganda mahsulotning ayrim turlarini, masalan, ixtisoslashtirilgan yirik korxonalarda zagotovkalar ishlab chiqarish garchi bunda transportirovkaga sarflanadigan qoʻshimcha xarajatlar yuzaga kelsa ham ular bilan mashinasozlik korxonalarni taʼminlash foydalidir.

Konsentratsiyalash – bu ishlab chiqarishni yirikroq korxonalarda jamlashtirish, yaʼni mahsulot chiqarishni katta koʻlamlarda yirik korxonalarda yoki birlashmalarda tashkil qilishdir. Eng katta samaradorlikka ixtisoslashtirilgan korxonalar mustahkamlanganida erishiladi.

Yirik korxonalar uncha katta boʻlmagan korxonalar oldida bir qator ustunlikka ega:

- 1) ishlab chiqarish koʻlami oshirilganida asosiy fondlarning

qiymati mahsulot chiqarishga qaraganda sekinroq o'sadi, shuning uchun fondlarning samaradorligi oshadi.

2) Yangi texnika, ilg'or texnologiyani keng qo'llash, u ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

3) yirik korxonalar yuqori mehnat unumdorligini, mahsulot tannarxining pasayishi va foydaning o'sishini ta'minlaydilar.

Kombinatsiyalashtirish – bitta korxonada yo xom-ashyoga ishlov berishning izchil yoki bir-biriga nisbatan yordamchi bosqichlarni tashkil etuvchi turli xil sanoat tarmoqlarini birlashtirishdir. Kombinatsiyalashtirish iqtisodiy jihatdan samarali, u xom-ashyoni imkon qadar to'liq ishlatish transport xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Konsentratsiyalashtirishning va ixtisoslashtirishning darajasiga qarab ishlab chiqarishning uchta turini farqlaydilar. Bular: ommaviy, va yakka turdagi ishlab chiqarishlaridir.

Ishlab chiqarish tiplarining qiyosiy tavsifi

Ishlab chiqarish tavsifi	Ommaviy ishlab chiqarish	Seriya ishlab chiqarish	Yakka ishlab chiqarish
Mahsulotlar ro'yhati	Juda katta	Cheklangan	Keng
Chiqarish xarakteri	Uzluksiz, katta miqdorlarda (katta sur'at)	Davriy, seriyalar bilan	Epizodik, yagona nusxalarda, unchalik katta bo'lmagan partiyalarda
Ishlab chiqarishning takroriylik	Har kunlik	Oylik, choraklik, yillik	Takroriylikning mavjud emasligi
Chiqarish ritmi	Kichik, tezlashgan (soat bo'laklari)	Yiriklashti-rilgan (sutkaning, oyning bo'laklari)	Ritmning mavjud emasligi
Uskunaning ixtisoslash-ganlik darajasi	Maxsus uskuna, agregat dastgohlar avtomat liniyalar	Ixtisoslash-tirilgan, sezilarli darajada universal uskuna	Universal uskuna
Ishlab chiqarish uchastkalari-ning (sexlari-ning) tuzilishi	Predmetli yopiq sexlar va uchastkalar (detal qismi, mahsulotning belgisiga qarab)	Predmet – texnologik yoki texnologik (ustun ravishda bajarilayotgan jarayonning belgisi bo'yicha)	Sexlar va uchastkalarni texnologik belgilariga qarab tuzish
Uskunaning joylashishi	Texnologik jarayonning borishi bo'yicha	Aralash, ammo ko'proq bir xil tipdagi ish o'rinlari guruhlar bo'yicha	Bir tipdagi guruhlar bo'yicha
Ishlarni ixtisoslash-tirish	Tor, amallar (operatsiyalar bo'yicha)	Cheklangan, turdosh amal-lar guruhlar bo'yicha	Universal ishchilardan keng miqiyosda foydalanish
Maxsus asbob va moslama-dan foydalanish	Juda keng	Keng	Kamdan-kam

6.2. Korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni

Ishlab chiqarish jarayoni – o'zida mehnatining natijasida boshlang'ich materiallar tayyor mahsulotlarga aylanadigan o'zaro bog'liq jarayonlarini va tabiiy jarayonlarni namoyon qiladi.

Har qanday mehnat jarayonida ishchi mehnat ish qurollari (uskuna, asbob, moslama) yordamida mehnat predmetlari (boshlang'ich xom-ashyo, materiallar) ga ta'sir qiladi, ularni tayyor mahsulotga aylantiradi. Tabiiy jarayonlar – bu odam ishtiroksiz ro'y beradigan, jarayonlar, masalan kolinlarga qo'yilgan metallning sovishi, mahsulotning bo'lgandan so'ng qurishi kabilardir. Butun ishlab chiqarish jarayonida ularning solishtirma usuli juda kam.

Chiqarilayotgan mahsulotlarning xarakteri va miqyoslariga qarab ishlab chiqarish jarayonlari **oddiy yoki murakkab** bo'lishi mumkin.

Oddiy ishlab chiqarish jarayoni tayyor mahsulot olish maqsadida materialga izchil (qadamma-qadam) ishlov berishdir.

Murakkab ishlab chiqarish jarayoni bir nechta (kunlab) oddiy jarayonlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish jarayoni o'z ichiga texnologik jarayonlarni olganidek texnologik bo'lmagan jarayonlarni ham oladi.

Texnologik jarayonlar – bu ular natijasida mehnat predmetlarining shakllari, O'lchamlar xususiyatlari o'zgaradigan jarayonlar (payvandlash, issiqlik bilan ishlov berish) dir.

Texnologik bo'lmagan jarayonlar – bu mehnat predmetlarining shakllari, o'lcham va xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelmaydigan jarayonlar (transportirovka qilish)dir.

Qaysi mahsulot ishlab chiqarish natijasi ekanligiga qarab ishlab chiqarish jarayonlari Asosiy, yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi turlariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat predmetlarining harakatlanish turlari.

Ishlab chiqarish jarayonida detallar (mahsulotlar) bir ish o'rnidan ikkinchisiga, amal (operatsiya)dan amalga o'tkaziladilar. Bu o'tkazish har xil usulda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni mehnat predmetlarini harakatlantirishning har xil turidan foydalanilishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat predmetlarini harakatlantirishning uchta turi mavjud. Bular: izchil, parallel va izchil parallel (aralash) turlardir.

Harakatlanishning **izchil** turi deb detallar (mahsulotlarni o'tkazishning shunday usuliga aytiladiki, unda ishlov berish partiyalarga bo'lib amalga oshiriladi, qism (partiya)ni bir operatsiya (amal)dan ikkinchisiga faqat qismdagi detallarning hammasiga bundan oldingi amalda ishlov berib bo'linganidan o'tkaziladi. Harakatlantirishning bu turda qo'llanilganida ayrim detallar (mahsulotlar) har bir operatsiyada uzoq vaqt, butun partiyaga ishlov berilishini kutib turib qoladilar. Harakatlantirishning izchil turi odatda yakka va mayda seriyali ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Harakatlantirishning **parallel** turi deb detal (mahsulot) larni o'tkazishning shunday usuliga aytiladiki, unda detal (mahsulot) lar operatsiyadan operatsiyaga donalab yoki kichik – kichik transport partiyalari bilan o'tkaziladi. O'tkazishning bu usulida har bir detal yoki transport partiyasi ishlov berilganidan so'ng darhol keyingi operatsiyaga partiyadagi qolgan detallarga ishlov berilishiga qadar o'tkaziladi. Bu alohida detallarning ishlovni kutib yotib qolish vaqtini qisqartiradi yoki umuman yo'qotiladi, bu esa partiyaga ishlov berishning davomiyligini eng qisqa qiladi. Bu usul ommaviy va yirik seriyali ishlab chiqarigda qo'llaniladi, u ishlab chiqarishni oqim usulida tashkil etish negizida yotadi.

Harakatlantirishning parallel – izchil (aralash) turi deb detal (mahsulot) larni o'tkazishning shunday turiga aytiladiki, unda partiyadagi ayrim detallarga bir vaqtning o'zida texnologik jarayonning ikki yoki bir necha operatsiyasida ishlov beriladi va hamma amallarda ish tanaffuslarsiz, ulushlarsiz boradi.

Partiyaning bir qismiga bir vaqtning o'zida (parallel) ishlov berish ayrim detallarning yotib qolishini kamaytiradi va ishlov berishning davomiyligini izchil usuldagi bilan solishtirganda qisqarishiga olib keladi. Bu usul ommaviy va yirik seriyali ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishning ratsionallik darajas-

ining ko'rsatkichi bo'lib ishlab chiqarish siklining davomiyligi va uning tuzulmasi xizmat qilishi mumkin.

Ishlab chiqarish siklining davomiyligi – bu ishlab chiqarishga material kiritishdan tayyor mahsulot chiqarilguncha qadar ketadigan vaqt bo'lagi, ya'ni ishlov berilayotgan mahsulotlarning ishlab chiqarishda bo'lish vaqtidir. Tuzilma esa ishlab chiqarish sikli qanday qismlardan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish siklining davomiyligi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) Asosiy vaqtini – T_{asos} – materiallarni ishlab chiqarishga kiritishdan to mahsulotni yig'ish va sinashgacha qo'yilgan texnologik jarayonning hamma bosqichlaridagi ishlov berish vaqtini, ya'ni texnologik siklni.

Ba'zi xizmat ko'rsatish jarayonlarini bajarish (transportirovka qilish, texnik nazorat va hokazolar) vaqtini – T_{xizm} .

2) Ishlov berilayotgan mahsulotlarning yotib qolishini yuzaga keltirgan uzulish vaqtini – T_{uzil} . Uzilish yoki tanaffuslar reglamentlangan xodimlarning ish va tashkiliy-texnik sabablar (imlarni yomon tashkil qilish, texnik sabablar va boshqalar) ga ko'ra bo'ladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish siklining davomiyligi

$$T_{ts} = T_{asos} + T_{xizm} + T_{ton}$$

Har bir korxona ishlab chiqarish siklining davomiyligini qisqartirishga intiladi, chunki bu aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtiradi va shu munosabat bilan ishlab chiqaruvchi asosiy fondlaridan samaraliroq foydalanish imkonini qo'lga kiritadi.

Ishlab chiqarish siklining davomiyligini qisqartirish uchun korxonada quyidagi tadbirlarni o'tqaziladi:

- ishlov berish, yig'ish, texnik nazorat, transport operatsiyalari jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;
- unumdor asboblarni ishlatish;
- ilg'or texnologik jarayonlardan foydalanish, uchashtalarning ishlarini aniq ravshan rejalashtirish;
- harakatlantirishning parallel va izchil turlarini qo'llash va boshqalar.

6.3. Oqim va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning mohiyati va samaradorligi

Ishlab chiqarishni tashkil qilishning eng ilg'or usuli oqim usulidir. *Oqim* deb ishlab chiqarish jarayonini shunday tashkil qilishga aytiladiki bunda jarayonning hamma amallari (operatsiyalari) uzluksiz va ritm bilan bajariladi. Potok ishlab chiqarishini joriy qilish uchun amallarning texnologik jarayon belgilagan ketma–ketligi bo'yicha joylashtirilgan oqim liniyalari o'rnatiladi.

Bir, ba'zida esa bir nechta ishchi o'rniga bitta aniq operatsiya birlashtiriladi. Bundan oldin esa texnologik jarayon batafsil ishlab chiqiladi, u davomiyligi (mehnat sig'imi) bo'yicha teng bo'lgan operatsiyalarga maydalanadi, ular maqsadga eng muvofiq bo'lgan izchilligi belgilanadi. Oqim liniyasining ish o'rinlari maxsus uskunalar, yechilmaydigan moslamalar bilan jihozlanadi va operatsiyalararo transporter bilan ulanadi. U tayyorlanayotgan mahsulotni operatsiyadan operatsiyaga ishlab chiqarishning berilgan ritmiga muvofiq keluvchi ma'lum tezlikda harakatlantiradi.

Oqim liniyalarida mehnat unumdorligini oshirish:

a) texnologik jarayonlarning ayrim operatsiyalarining mehnat sig'imini ilg'or texnika va yuqori unum bilan ishlaydigan uskunalarni qo'llash sababli pasaytirish;

b) ishlab chiqarish jarayonida vaqtning yo'qotilishini transport operatsiyalari va boshqa yordamchi ishlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash, uskunalarni qayta sozlashning yo'qligi, tufayli kamaytirish;

v) ishchilar tomonidan o'z vazifalarining sifatliroq bajarilishi (chunki amalning ko'plab marta takrorlanishi tufayli ular mo'tadil ishlab chiqarish ko'nikmalarini oladilar) hisobiga erishiladi.

Oqim ishlab chiqarishini tashkil qilishning olib, eng yuqori shakli avtomatik oqim liniyalaridir.

Avtomatik oqim liniyasi ma'lum izchillikda, avtomatik tarzda, inson mehnatining ishtirokisiz, detal yoki ishlab chiqarish bo'yicha amallarning bajaruvchi mashinalarning yig'indisidir. Mashinalar, odatda, butun potok liniyasi uchun umumiy bo'lgan boshqaruv mexanizmi, shuningdek, tayyorlanayotgan detallarni (mahsulotlarni) operatsiyadan operatsiyaga o'tkazuvchi transport qurilmasi bilan birlashtirilgan. Ishchining vazifalari faqat mashinalarning ishini nazorat qilishdagina iborat bo'lib qoladi.

Avtomatik oqim liniyalarining iqtisodiy samaradorligi mehnat unumdorligining va mahsulot sifatini keskin oshirish, tannarxning sezilarli darajada pasayishi, boshqa ko'rsatkichlarning yaxshilanishi, shuningdek vazifalari mashinalarni boshqarishgacha qisqargan ishchilarning mehnatining yengillashganidir. Kompleks avtomat liniyalar zamonaviy elektron vositalar bilan jihozlanadilar, buning natijasida ular o'z-o'zlarini tartibga soladigan qurilmalarga aylanmoqdalar va inson ishtirokisiz yuqori sifatli mahsulotining chiqarishining ta'minlamoqdalar. Ishlab chiqarishini avtomatlashtirish ishchining mehnatini muhandisning mehnatiga yaqinlashtirmoqda va bu bilan jismoniy hamda aqliy mehnat o'rtasidagi farqlarni yo'qotmoqda.

7-Bob. SANOAT KORXONASINING JOYLASHGAN YERI

Iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash uchun sanoatning rivojlan-tirishning o'zigina emas, uning alohida tarmoqlarini ratsional (oqilo-na) joylashtirish ham katta ahamiyatga ega.

Sanoatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqila-yotgan paytda sanoatni xom-ashyoga ham yaqin, xom-ashyoga ish-lov berishdan ishlov berishning to tayyor mahsulot olinishigacha bo'lgan navbatdagi bosqichlarga o'tilganida mehnatni eng kam yo'qotish nuqtai nazaridan kelib chiqib ratsional joylashtirish za-ruratini hisobga olish kerak.

Sanoat oqilona joylashtirilganida mamlakatning moddiy va mehnat resurslaridan to'laroq foydalaniladi, yurtimizning hamma mintaqalarining proporsional rivojlanishi ta'minlanadi.

Mamlakatda sanoatni joylashtirishni quyidagi asosiy tamoyillar belgilab beradilar: - korxonalarining O'zbekiston respublikasining hamma xududi bo'ylab teng, bir tekisda joylashtirilishi;

-sanoat ishlab chiqarishni xom-ashyo va materiallarning man-balariga, mehnat resurslari va tayyor mahsulotning iste'molchilari jamlangan xududlarga yaqinlashtirish;

-sanoat mahsulotlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishni ma'lum xududlarda konsentratsiyalash , alohida iqtisodiy xududlarni to'g'ri ixtisoslashtirish.

Korxonalarni joylashtirishni yaxshilash bo'yicha rejali amalga oshiriladigan tadbirlar ishlab chiqaruvchi kuchlarning butun mamla-kat bo'ylab bir tekis joylashishini, hamma mintaqalarning iqtisodiyoti-ni o'sishini, ularning rivojlanish darajalarining joylashuvini ta'minlaydi, xalqlarning madaniyatining o'sishiga yordam beradi. Har bir iqtisodiy xudud (tuman, rayon) ma'lum miqdordagi mehnat va moddiy resurslarga ega, shuning uchun mahsulotning alohida tur-larini ishlab chiqarishni buning uchun eng qulay sharoitlar bor xududlar (tumanlar) da jamlash, joylashtirish, tashkil qilish kerak. Iqtisodiy xududlarni ixtisoslashtirish masalalari hal qilinayotgan paytda keyingi vaqtlarda shakllangan xalqaro mehnat taqsimotini, tashqi iqtisodiy aloqalarning imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Sanoat ishlab chiqarishini xom-ashyo va material bazalariga va iste'mol markazlariga yaqinlashtirish ishlab chiqarishga aloqasi bo'lsagan va juda uzoqdan yuk tashishni sezilarli darajada qis-

qartiradi, maxalliy resurslardan to'laroq foydalanishni, transportni oqilona ishlatishni, mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytirishni ta'minlaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va tannarxni pasaytirishga yordam beradi.

Korxonalarni to'g'ri joylashtirish, qurilish o'rnini tanlash juda batafsil (detallashtirilgan) hisob-kitob va ishlab chiqarishning joylashtirishning turli xil variantlarini iqtisodiy tahlil qilishni talab qiladi.

Korxonaning joylashish yerini tanlashga ta'sir qiluvchi omillari:

- hamma omilning mavjudligi
- energiyaning mavjudligi
- ish kuchining yaqinligi va xarajatlari
- temir yo'llarning yaqinligi
- iste'molchining yaqinligi
- atrof-muhit sharoitlari (ekologiya)
- boshqa omillar
 - davlat ko'rsatmalari
 - soliqlar va yig'imlar
 - davlat datatsiyalari
 - infratuzilma
 - bog'langan va erkin joylar

Sanoatni rivojlantirish uchun xom-ashyo va energetika bazalari zarur. Bizning mamlakatimiz tabiiy boyliklarning katta zahiralariga egalik qiladi.

Fan va texnika muvaffaqiyatlari yangi sintetik materiallar, polimerlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ularning qo'llash sanoatning resurslarini oshiradi va mahsuloltning yangi turlarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

8-Bob. SHERIKLAR OLDIDA XO‘JALIK SHARTNOMALARI BO‘YICHA JAVOBGARLIK

Javobgarlikning bu turi fuqarolik huquqi me‘yorlari bilan tartibga solinadi. Bu masala bo‘yicha asosiy me‘yorlar O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroviy Kodeksida mujassamlashgan. Huquqda ko‘zda tutilgan javobgarlik huquqiy munosabatlari tartibga solish usulidir. U doim *mulkiy xarakterda* bo‘ladi va shu tariqa shartnomaviy munosabatlarini buzuvchilarga iqtisodiy ta’sir qiladi.

Tadbirkorning fuqaroviy-huquqiy javobgarligining davlat boshqaruvi idoralari oldidagi javobgarligidan farqi shundaki, jarimalar (sanksiyalar) jabrlanuvchining foydasiga undiriladi. Bunda xo‘jalik shartnomasi bo‘yicha sherikning o‘zi manfaatli tomondir. Aynan u jarima (seksiya) undirish haqidagi talabni qo‘zg‘atadi. Javobgar uning talablarini qondirmagan holda nizo xo‘jalik sudiga da’vo taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaviy munosabatlarda qatnashuvchi tadbirkorlar *kreditör* va *qarzdor* deb ataladilar.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning bu xarakterli tomonlari fuqaroviy qonunchilikning mohiyati bilan taqozo etilgan. U shartnoma ishtirokchilarining tengligiga, ya’ni teng huquqli va mustaqil tovar egalarining munosabatlariga asoslangan va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik shundan kelib chiqib, jazolovchi emas o‘rinni to‘ldiruvchi, kompensatsiyalovchi xarakterga ega. Uning maqsadi jabrlangan sherikning mulkiy manfaatlarini ekvivalent (teng) asosda tiklash. *Ta’kidlash lozimki, tadbirkorlar o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlaridagi javobgarlik haqidagi amaldagi qonunchilik, faoliyat asoslangan mulk shaklidan qat’iy nazar hamma tadbirkorlarga yagona me‘yorlarni ko‘zda tutadi.*

8.1. Javobgarlik turlari

Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik kreditorga yetkazilgan zararlarni qoplash shaklida yoki so‘zda turmaganlik uchun jarima undirish shaklida bo‘lishi mumkin.

Zararlarni qoplash – fuqaroviy huquqiy javobgarlikning tovar pul munosabatlari tamoyiliga eng to‘liq javob beradigan asosiy shaklidir, chunki bu holda kreditör to‘liq kompensatsiya (tovar) oladi.

Zararlar ikki turli bo‘ladi:

- Huquqlari buzilgan shaxs qilgan xarajatlar, uning mulkining zararlanishi yoki yo‘qotilishi (real zarar). Shartli ravishda ularni *to‘g‘ridan-to‘g‘ri* zarar deb nomlash mumkin.

Masalan, agar materiallar uchun oldindan haq to‘lab, tadbirkor ishlab chiqarishda foydalanish uchun zarur bo‘lgan tovarni o‘z vaqtda olmagan bo‘lsa oldindan to‘langan summa uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararini tashkil qiladi. Agar yukning yetib kelgan, haqi oldin to‘langan qismi buzulgan, qayta ishlash uchun yaroqsiz bo‘lganda ham tadbirkor xuddi shunday to‘g‘ridan – to‘g‘ri zarar ko‘rgan bo‘ladi.

- Olinmagan daromatlar u shaxs odatdagi aylanma sharoitlarida, agar uning huquqi buzulmaganida olishi mumkin bo‘lgan, lekin olinmagan daromad (qo‘ldan chiqarilgan foyda). Zararlarning bu turini *bilvosita* zarar deb atash mumkin.

Bizning davom ettirib, aytish mumkinki, tadbirkor mahsulot jo‘natuvchi (yoki uni tashibberuvchi)dan materiallarni, yarim fabrikatlarni o‘z vaqtida olmay, o‘z ishlab chiqarish rejasini, demak, mahsulot sotish rejasini ham bajara olmadi va foydadan mahrum bo‘ldi, o‘z daromadini qo‘ldan chiqardi.

Mutlaqo ravshanki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararlarni aniqlash qiyin emas, lekin bevosita zararlarni hisoblab chiqarish har doim ham oson bo‘lavermaydi. Shuning uchun davlat, ya‘ni hech kimniki bo‘lmagan mulk xukmronligi davrida xo‘jalik yurituvchilar bunday ish bilan o‘zlarini uncha qiynamaganlar va o‘z sheriklarini avf etganlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida esa ikkinchi turdagi zararlarni ko‘zda tutuvchi qoidaning ahamiyati oshadi, chunki tadbirkor – bu o‘z faoliyatini foyda olish uchun amalga oshiruvchi shaxsdir. Shuning uchun shunday turdagi zararlarni hisoblashning uslubiyati ishlab chiqilmoqda va qayta tiklanmoqda.

Bir vaqtning o‘zida shuniyam hisobga olish kerakki, shartnomalarning ayrimlari bo‘yicha qonunchilik hujjatlari bilan *cheklangan mas‘uliyat* belgilanishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kungacha amalda bo‘lgan temir yo‘llar nizomida yuk yo‘qotilganida yoki unga zarar yetkazilganida uning qiymatini qoplab berish ko‘zda tutilgan. Lekin boy berilgan foydaning undirishi haqida xech narsa deyilmagan. Zararlarni to‘liq qoplash tamoili

agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqa chora koʻzda tutilmagan boʻlsagina amal qiladi.

Jarima, penya – qonunchilik yoki shartnomada belgilangan pul summasi boʻlib, uni qarzdor shartnomani bajarmaganida yoki talab darajasida ijro qilmaganida toʻlaydi. Bunday xolda zararning neustoyka zarar tufayli yetkazilgan qismigina toʻlanadi.

Qonunchilikda yoki shartnomada *faqat neustoyka (soʻzida turmaganlik uchun jarima)ni undirishgina* koʻzda tutilishi mumkin: zararlar toʻliq summada neustoykaning ustiga undiriladi yoki kridi-torning xohishiga koʻra neustoyka yoki zarar undiriladi.

Mamlakatimizda bozor tuzulmalarining shakillanishi, bozor munosabatlari tizimining rivojlanishi shartnoma ishtirokchilari tomonidan huquqiy javobgorlikni qoʻllash tartibini oʻzgartiradi.

Agar avval shartnomada tomonlar asosan sheriklar koʻzda tutgan emas, qonunchilikda koʻzda tutilgan sonksiyalar bilan bogʻlangan boʻlishsa endi vaziyat oʻzgardi. tadbirkorlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun tomonlarga ega maqbul bulgan, ular bajara oladigan sonksiyalarni shartnomada oʻzlari belgilaydilar. Bundan *kelishuv neustoyka* shartnomasi (shartnomaviy neustoyka) deb ataladi.

Shartnomaviy neustoyka bilan birga qonuniy neustoyka ham mavjud boʻlib, u majburiyatlarning maʼlum turlariga nisbatan koʻzda tutilishi mumkin. Agar neustoyka imperativ tomonidan belgilangan boʻlsa u tomonlar buni koʻzda tutgan, tutmaganlaridan qoʻllanilaveradi. Agar taʼqiq yoʻq boʻlsa, qonuniy neustoykaning miqdori tomonlarning kelishuviga koʻra oshirilishi mumkin.

Agar shartnomada bir nechta tadbirkor qatnashsa, va qonunchilik yoki shartnomada boshqa tartib koʻzda tutilmagan boʻlsa, masʼuliyat ulushiy boʻlishi mumkin. Qonun yoki shartnoma shuningdek, *birgalikdagi* javobgarlikni ham koʻzda tutadi. Bunday hollarda kreditor ushbu shartnomada qatnashuvchi istalgan qarzdorga talab taqdim qilish huquqiga ega oʻz navbatida qarizdorlar kreditor oldidagi majburiyatlarini bajargan oʻz hamdoʻstlari oldida ulushiy javobgar boʻladilar.

8.2. Fuqaroviy – huquqiy javobgarlik shartlari

Shartnomalarni talablar darajasida bajarmaslik yoki umuman ijro etmaslik uchun javobgarlik oʻz-oʻzidan vujudga kelmaydi. Buning

uchun quyidagi shart–sharoitlar mavjud yoki sodir bo‘lishi kerak:

- shaxs o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish shartlarini qonunga xilof ravishda buzishi;
- zarar yoki yo‘qotishning mavjudligi;
- huquqqa zid harakatlarni sodir etganligi va yuzaga kelgan zarar o‘rtasida sababiy aloqa mavjudligi;
- qoida buzuvchining aybi.

Huquq bozorning aybi sababli bog‘liqlik javobgarlik sharti sifatida amaliyotda katta ahamiyatga ega. Masalan, tovar yetkazib berilmaganda tadbirkor mahsulot jo‘natuvchiga agar aynan shu sabab (xom-ashyoning yo‘qligi ishlab chiqarish va sotish rejasini shunday bajarmaslik olib kelganligi) uning foyda olishiga mone‘lik qilganini isbotlasa o‘zi ko‘rgan bu zarni alomat qolgan, qo‘ldan chiqorgan foyda shaklida o‘rmini ro‘ldirib berishini talab qilib da’vo taqdim etishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotining, tadbirkorlikning rivojlanishi huquqiy javobgarlikning ayb shartini tartibga solishda ham aks etadi. Bir tomondan O‘zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksi qarzdor majburiyatlarini talab darajasida bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rgan bo‘lsa, uni aybdor emas deb belgilaydi, ikkinchi tomondan esa agar u tadbirkor bo‘lsa shartnoma qatnashchisiga boshqa talablar qo‘yiladi. Agar qonunlarda yoki shartnomada boshqacha me‘yor ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tadbirkor mas’uliyatdan, javobgarlikdan faqat yengib bo‘lmaydigan kuchlar: favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan (fors - major) sharoitlar, holatlar (tabiiy ofatlar, harbir harakatlar) tufayli o‘z shartnomaviy majburiyatlarini bajarmagan hollarda ozod qilinadi.

Shunday qilib, tadbirkor jumladan o‘z o‘zlarining vazifalarini bajarmaganligi, intizomni buzganligi yoki bozorda mahsulot chiqarish uchun zarur bo‘lgan tovarlarning yo‘q bo‘lganligidan javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Tadbirkorning mas’uliyati holidagi qoidalardagi istosno aybdan qat’iy nazar, sinov – konstruktorlik ishlarini bajarish bo‘yicha shartnomaga ko‘ra majburiyatlarni bajarmaslik yoki talab darajasida ijro etmaganlik uchun javobgarlikdir. Bu shartnomada tadbirkor faqat uning aybi bo‘lgandagina javob beradi.

Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgila-

nayotganida kreditorning o'zini qanday tutgani ham e'tiborga olinadi. Qonun agar majburiyatlarni bajarmaslikka yoki talab darajasida ijro etmaganlikka kreditorning o'zini tutishi, hatti-harakati yordam bergan bo'lsa sud, xo'jalik sudi yoki xomeslar sudi qarzdorning javobgarligining miqdorini shunga mutanosib miqdorda kamaytirishi mumkinligini belgilab qo'ygan. Bunday hollarda shartnomaning har ikkala tomonining aralash aybi tan olinishi mumkin.

Masalan, temir yo'lda konteynerda tashilayotgan yukning buzilgani aniqlanganida yuk tashishga yaroqli, so'z vositalarni taqdim etishga majbur bo'lgan yuk tashuvchining va shu bilan bir vaqtda kompyuterlar bu yuklarni tashish uchun yaroqliligini aniqlash majbur bo'lgan yuk jo'natuvchining aralash ayblari tan olinishi mumkin.

Huquqiy javobgarlikning ko'rib chiqilgan shakllari zarur hollarda zararlar va loyihalarini sud tartibida undirishdan tashqari fuqaroviy qonunchilik *tadbirkorlikning shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga sud idoralariga murojaat etmasdan tezkor ta'sir qilish choralari*ni ham ko'zda tutadi. Masalan bunday choralarga quyidagilar kiradi:

- harid-savdo shartnomasida – oluvchining sifatsiz mahsulotni qabullashdan va uning uchun tulovlarni amalga oshirishdan voz kechishi, to'lov oldindan amalga oshirilgan hollarda esa – bu summalarni qaytarishni yoki bu mahsulotni boshqasiga almashtirishni talab qilish;
- yuk tashish shartnomasida: - ikkinchi tomon hamma to'lovlarni amalga oshirmaguncha yukni ushlab turish;
- oldi-sotdi shartnomasida: – kafolat muddati bilan sotish – sotilgan tovarning kamchiliklarini bartaraf etish yoki uni almashtirish sotuvchining majburiyatidir.

Nazorat savollari

1. To'g'ridan - to'g'ri va bevosita zararlar nima?
2. Neustoyka nima?
3. Oldi-sotdi shartnomasida shartnoma majburiyatlarini buzuvchiga nisbatan qanday sanksiyalar ko'zda tutilishi mumkin?